

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI
SAN'ATSHUNOSLIK FAKULTETI

“BADIY GRAFIKA VA UNI O'QITISH METODIKASI” KAFEDRASI
Boboqandova Marhabo

Rang tasvirda “Bahor” mavzusida kompozitsiya ishlash uslubiyati

5140700–Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi yo‘nalishi
bo'yicha bakalavr darajasini olish uchun

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

ILMIY RAHBAR: D.OMONOV

Bitiruv malakaviy ishi “Badiy grafika va uni o'qitish metodikasi”
kafedrasida bajarildi. Kafedraning 2011 yil ____ maydagi majlisida muhokama
qilindi va himoyaga tavsiya etildi (bayonnomma №____)

Kafedra mudiri: dots. M.Umarov

Bitiruv malakaviy ishi YaDAKning 2011 yil ____ iyundagi majlisida himoya
qilindi va ____ ball bilan baholandi (bayonnomma №____)

YaDAK raisi: _____
A'zolari: _____

Samarqand-2011

MUNDARIJA

Kirish

I-Bob. Tasviriy san'atning tarbiyaviy ahamiyati.

- 1.1 Tasviriy san'atda rang tasvirining o'rni va ahamiyati
- 1.2 Akvarelda ishslash texnologiyasi va usullari. .
- 1.3 Guash bo'yog'ida ishslashning yo'llari

II-Bob. Rang tasvirda ishslashda moybo'yoqdan foydalanish.

- 2.1 Moybo'yoqda tasvirlarni ishslashning o'ziga xos tomonlari
- 2.2 Iliq va sovuq ranglar hamda ularning qo'llanilishi.
- 2.3 Manzara janrida kompozitsiyasining yaratilishi.

III. Xulosa

IV. Adabiyotlar

Kirish

Tasviriy san'at – bu go'zalliklar dunyosi. Uni tushunish va qabul qilishni qanday o'rghanish mumkin? Buning uchun eng avvalo tasviriy san'atning ifodaviy tilini o'zlashtirish, uning turlari va janrlari haqida tushunchaga ega bo'lish va rangtasvir texnikasi va texnologiyasi haqidagi bilimlarga ega bo'lish lozim.

Shuning uchun ham tasviriy san'at o'qituvchisi o'z ish faoliyatida o'quvchilarga faqat san'atning nazariy asoslari va uning ifodaviy tilinigina o'rgatib qolmasdan, balki tasviriy san'at materiallari va asbob-uskunalari haqidagi ma'lumotlarni ham yetkazishlari juda muhim.

Tasviriy san'atni o'rghanish, uning texnik asoslarini o'rghanishdan boshlanadi.

Xuddi shu bilimlar tasviriy san'atning turli ko'rinishlari bilan muvaffaqiyatlil shug'ullanishga sharoit yaratadi.

Universitetlarning badiiy grafika fakultetlari va san'at litseylarida materialshunoslik va tasviriy san'at vositalariga kam e'tibor qilinadi. Bu esa ta'lim jarayonida juda katta uzilishlarga olib keladi.

Ushbu uslubiy qo'llanmada tasviriy san'at vositalari, asbob-uskunalari va materiallari bilan tanishtirishni va rangtasvir texnikasi va texnologiyasining ijodiy imkoniyatlarini oolib berish maqsad qilib qo'yilgan.

Materiallarning xususiyatlari bilan tanishish ijodiy jarayonda muhim rol o'ynaydi.

Talabalar tasviriy san'atning texnik asoslarini o'rGANIB bo'lishidan so'nggina rassom-pedagog ularni qalamtasvir va rangtasvirga o'rgatadi.

Rangtasvir materiallarini yaratish texnologiyasi amaliy kimyo asosida rivojlandi va ilmiy xarakterga ega. Bu texnologiyani rangtasvirchilar amaliy ish jarayonida yaratishgan va yillar davomida o'rGANISHGAN.

Qadimgi davrlardan to hozirgi kungacha yangi tasviriy vositalarning rivojlanishi rangtasvir qoidalarini san'at, shuningdek hunarmandchilik sifatida ko'rsatib kelgan.

Bo`yoqni birinchi bo`lib ibtidoiy jamoa davrida yashagan inson kashf qilgan. Hayvonlar qoni, moy, ko`mir, tuproq ham o`sha davrlarda ishlangan bo`yoqlarning tarkibiy qismi bo`lgan. Bo`yoqlarni tayyorlash malakalari hozirgi kungacha ham o`zgarishsiz yetib kelgan, lekin asosiy tarkibiy qismlari va ishlab-chiqarish texnikasi o`zgarib ketgan.

Bo`yoqlar pigment va bog`lovchi vositalardan tarkib topadi. Pigment (lat. Pigmentum)- bu bo`yovchi modda hisoblanadi. Keyingi boblarda bu to`g`rida batafsil to`xtalib o`tamiz.

Italyan rassomi, me'mori va yozuvchisi Jorjo Vazari 1550-1568 yillarda birinchi «San'at tarixi» kitobini yozadi va bu kitobida moybo`yoqni kashf etgan aka-uka Yan van-Eyklar haqida ma'lumot beradi. Moybo`yoq rangtasvirda XV asrdan buyon qullanila boshlandi. Shungacha kartinalar, ayniqsa yog`ochga ishlangan rasmlar tuxumli tempera bilan ishlangan. Bu kartinalarni yaratishda rantasvir uchun murakkab materiallar va bog`lovchi elementlardan foydalanganlar. Lekin, ular qisqa vaqtida ishdan chiqqan va bo`yoqni yana tayyorlash zarur bo`lgan. Bo`yoqlarda bog`lovchi vosita sifatida moylardan foydalanila boshlagandan keyin, bo`yoq tayyorlash jarayoni bir muncha osonlashadi. Bundan tashqari bo`yoqlarning yorqinligi va ranglarning aniqligi oshdi. Turli bo`yoq qatlamlarini bir-biriga qo`yilishi nozik rang nyuanslarini keltirib chiqardi.

Moylar bo`yoqlarning qurish jarayonini sekinlashtirdi, shuning uchun ham uzoqvaqtishlash mumkin bo`lib qoldi. Quruq bo`yoqqa ham yangi qatlam yaxshi urnashadi, shu bilan birga oldingi qatlamning rangi uchmaydi va erib ham ketmaydi. Shunday qilib rassomlarga ancha yengillik bo`ladi. Rassom vaqtadan yutadi. U kartina uchun qancha vaqtishlaydi va ish jarayonida shakllarni bo`yoq bilan yaratishga imkoniyat oladi.

Tasviriy san`atda uning rangtasvir va grafika tushunchalari mavjud bo`lib, ular bir-biridan ishlanish yo'llari hamda uslublari, tasviriy vositalari bilan farqlanib turadi. Rang inson hayotida muhim ahamiyat kasb etuvchi hodisadir. U turli aziyatlarda odamga har-xil ta`sir etadi. Shuning uchun biz ayrim paytlarda ranglarni «quvonchli» va kayfiyatimizni tushkunligini ifoda etish mumkin bo`lgan «xira»

deb atashimiz bejiz emas. Inson qadimiy paytlardanoi rangning ana shunday xususiyatlarini hisobgaolib, o'z faoliyatida unumli foydalanib kelganligi ma'lum. Ayniqsa, shunday vosita sifatida rassomlar ustalik bilan foydalanganlar. Asarlariga rang bilan jilo berib odamlar kayfiyatiga turlicha ta'sir etib fikrlar uyg'otadigan tasvirlar yaratishga erishganlar. Shuning uchun tasviriy san'atning juda ko'p turlari va janrlarida rang hamda uni ishlata bilish juda kattaahamiyatga egadir. Ammo u qalamtasvirning muhim ekanligi bilan quvvatli ekanligi ma'lum haqiqatlardan eng asosiysi desak to'g'ri bo'ladi. Shuning uchun qadimdan qalamtasvir chizishga rangtasvirning asosi sifatida qarash shakllangan. Ammo rang xususiyatlarini yaxshi bilish har bir tasvir chizishni o'rganuvchi uchun judaahamiyatlidir.

Tasviriy san'atda uning rangtasvir va grafika tushunchalari mavjud bo'lib, ular bir-biridan ishlanish yo'llari hamda uslublari, tasviriy vositalari bilan farqlanib turadi. Rang inson hayotida muhim ahamiyat kasb etuvchi hodisadir. U turli aziyatlardaodamga har-xil ta'sir etadi. Shuning uchun biz ayrim paytlarda ranglarni «quvonchli» va kayfiyatimizni tushkunligini ifoda etish mumkin bo'lган «xira» deb atashimiz bejiz emas. Inson qadimiy paytlardanoi rangning ana shunday xususiyatlarini hisobgaolib, o'z faoliyatida unumli foydalanib kelganligi ma'lum. Ayniqsa, shunday vosita sifatida rassomlar ustalik bilan foydalanganlar.

Ishning maqsadi. 1. Bitiruv malakaviy ishini bajarish. Talabalarni estetik idrok qilish qobiliyatlarini o'stirish, ularni tabiat, san'at va hayotdagi go'zalliklarni idrok etishga o'rgatish.

2. Talabalarning estetik didini tarbiyalash, ularni go'zallikni baholay olish haqiqiy go'zallikni xunuk va voqyea narsalardan farqlay bilishga odatlantirish.

3. Talabalardagi ijodiylikni tarbiyalash va o'stirish.

4. Balabalarning badiiy fikr doirasini kengaytirish.

5. Rangshunoslik fanidan olgan bilimlarini amalda qo'llash.

Tadqiqot obyekti. Bitiruv malakaviy ishi uchun qo'yilgan pastanovka (ya'ni, manzara) mavzusi asosida bajarilgan turli xil variantdagi eskizlar, qoralama ishlar va natyurmort mavzusida ijod etgan rassomlarning asarlaridan

reproduksiyalar. Pastanovkaga qo'yilgan narsalarni o'zaro nisbatlarini tavsiya qilish, aniqlash bosqichma-bosqich amalish ishlar bajarish. Amaliy ish jarayonida perspektiva havo perspektivasi va rangtasvir texnologiyasi qonun-qoidalariga amal qilish kompozisiyada detallarning shakli fakturasini rangini amalda qo'llash.

Ishning ilmiyligi. Bitiruv malakaviy ishini bajarishda qalam tasvir qonuniyatlariga qat'iy amal qilish. Buyum va jihozlarning nisbiy o'lchamlarini kompozisiyada aniq tasvirlash kompozisionyig'imini to'g'ri aniqlay bilish. Rangshunoslik qonunlari: rang koloriti gammasi, ranglarning to'yinganligi, narsa va buyumlarning shakli fakturasi kabi tomonlarini asosli ravishda topilishiga kata e'tibor qaratish. Ilmiylik prinsipi, shuningdek, yorug'-soya chiziqli va havo perspektivasi, rangshunoslik qonunlarini o'zlashtirishni nazarda tutadi.

Bitiruv malakaviy ishidan olingan natija. Mavzu asosida kompozisiya chizishda ketma-ketlik prinsipiga amal qilingan. Birinchi navbatda obyekt yoki pastanovka tanlanib, kuzatilib, o'rganilib tavsiya qilingan. Kuzatish va tahlil asosida qoralama ishlar etyutlar bajarilgan. Tayyorgarlik bosqichidan keyin kompozisiya asosiy holatda ko'chirilgan. Bitiruv malakaviy ishini chizishda rangshunoslik va rang texnologiyasining barcha qonun-qoidalariga amal qilingan holda ish bajarilgan.

Mavzuli kompozisiyani ishslash jarayonida ranglarning asosiy xususiyatlari uning yorqinligi (och-to'qligi), tusi va to'yinganligi bilan belgilanadi. Kompozisiyada har qanday predmetning hajmi, shakli, materiali, fazodagi joylashuvi aniqlangan va kompozisiya markaziga bo'ysundirilgan.

Shuningdek, chiziqli perspektiva, havo va rang perspektivasi, rel'f perspektivasi qoidalariga amal qilingan va ish jarayonida qo'llagan. Kompozisiyada bir nechta ranglar yig'indisi hamda ranglar garmoniyasini topishga erishdim.

I-Bob.

Tasviriy san'atning tarbiyaviy ahamiyati.

1.1 Tasviriy san'atda rang tasvirining o'rni va ahamiyati

Tasviriy san'at juda qadim zamonlarda, mehnat jarayonining taraqqiyoti natijasida paydo bo'ldi. Mehnat jarayonida inson tafakkuri kamol topdi, go'zallik hissi ortdi, voqelikdagi go'zallik, qulaylik va foydalilik tushunchalari kengaydi. Sinfiy jamiyat vujudga kelishi bilan esa ijtimoiy taraqqiyotda katta o'zgarishlar sodir bo'ldi; aqliy mehnat jismoniy mehnatdan ajralib chiqa boshladi. Bu esa fan va san'at rivojida muhim ahamiyat kasb etdi. Professional san'at va san'atkorlar shu davrda paydo bo'ldi. Tasviriy san'at esa o'ziga xos xususiyatini, sinfiyligini namoyon etib, hukmron sinfning ideologiyasini targ'ib etuvchi kuchli g'oyaviy qurolga aylandi. Lekin shunga qaramay, omma orasidan yetishib chiqqan iste'dodli ijodkorlar mehnatkash xalq ommasining orzu-istikclarini, ularning go'zallik va xudbinlik, oliyjanoblik va insonparvarlik haqidagi tushunchalarini ifoda etuvchi asarlar yaratdilar. Xalqning turmushi, xulq va odatlari, yutuq va mag'lubiyatlari ularning asarlarida o'z ifodasini topdi. Har bir davrda mavjud bo'lgan ana shunday san'at hayot go'zalliklarini tasvirlab, odamlarda yuksak xislat va fazilatlarni kamol toptirdi,

ularni tenglik, ozodlik, birodarlik, yorqin kelajakka intilishga da'vat etdi.

Haqiqatdan ham insoniyat yaratib qoldirgan madaniy qadriyatlar oddiy boyliklar bo'lib qolmay, balki o'zida inson aql-zakovati, hayot to'g'risidagi fikr-o'ylarini aks ettiruvchi ko'zgu hamdir. Jahon san'ati tarixini o'rgatish, uning taraqqiyot qonunlarini tushunish, nodir yodgorliklar bilan tanishish, o'tmish odamlarning his-tuyg'u, hayotiy tajribalarini o'rganish g'oyaviy-estetik qarashlarning shakllanishini bilish demakdir. Bu so'zsiz. Kishilarda hayotiy tajribalarning boyishiga, hayotga yanada keng va atroflicha yondoshishga yordam beradi. Tasviriy san'at turlariga rangtasvir, arxitektura, grafika, haykaltaroshlik kiradi.

Rangtasvir tasviriy san'atning eng muhim turlaridan bo'lib, maxsus polotnolarga, devorlarga ishlanadi. Tasviriy san'at asarlarida ifodalangan maqsad va mazmunni olib berishda rang muhim o'rinni egallaydi.

Rangtasvir asarlari xarakteriga ko'ra monumental, dekorativ, mo'jaz, dastgohli turlarga bo'linadi.

Monumental rangtasvir me'morchilik bilan bog'liq bo'lib, ular uylarning devorlarini, shiftlarini bezashda qo'llaniladi. Katta hajmda uzoqdan ko'rishga mo'ljallanganligi uchun bular yaxlitlashtirilgan holda ishlanadi, ranglar ham shartli ravishda olinadi. Mo'jaz san'at asarlari Turli mamlakatlarda, shu jum ladan, O'zbekiston hududida judahamqadim zamondan taraq qiy etib, qadimiylar qo'lyozmalar ga ishlangan. Chunonchi. Alisher Navoiyning «Xamsa» asarlariga ishlangan rasmlar bunga misol bo'la oladi.

Dastgohli rangtasvir asarlari keng tarqalgan bo'lib, maxsus matolar, karton, yog'och, romkaga tortilgan mato-xolst va shu kabilarga ishlanadi. Dastgohli rangtasvir moybo'yoq, guash, suvbo'yoq, tempera bo'yoqlarida maxsus dastgoh (molbert) larga o'rnatilib ishlanadi.

Grafika – lotincha «grafo» so'zidan olingan bo'lib, «yozaman», «chizaman» degan ma'noni anglatadi. Tasviriy san'atning bu turiga oddiy va rangli qalamda ko'mir, pastel, sangina, suvbo'yoq, guash va tushda ishlangan bezaklar, turli plakatlar, hajviyrasmlar va hakozolar kiradi.

Haykaltaroshlik – tasviriy san'atturlaridan biri. U lotincha «skulpo» so'zidan olinib, qattiq materiallarga «qirqish, kesish, o'yish, taroshlash» orqali ishlov berish ma'nosini anglatadi.

Tasviriy san'atning turlari.

Portret – rangtasvir janrlariichida eng qadimiylaridan bo'lib, kishilarning tashqi va ichki kechinmalarini tasvir orqali olib beradi.

Portret janrida ishlangan tasviriysan'at asarlari bizga musavvir Yashagan davrni, madaniyatini hamda tasvirdagi kishining ruhiyatini asarda talqin etadi.

Avtoportret – portret janrining ko'rinishlaridan biri bo'lib, musavvir o'zining tashqi qiyofasini o'zi tasvirlaydi.

Manzara – janrdagi asarlarda borliq, tabiatdagi ko'rinishlar haqqoniy aks ettiriladi. Manzarada faqatgina narsa va voqealar emas, balki musavvirning ichki kechinmalari ham ifodalanadi. Ayrim musavvirlar vodiylarni tog'u-toshlarni tasvirlashga ishqiboz bo'lsalar, boshqalari dengiz manzarasini tasvirlashda mohirdirlar. Manzara janrida musavvirlardan O'. Tansiqboyevning «O'zbekistonda mart», «Jonajon o'lka», «Mening qo'shig'im», N. Kashinaning «Tog'da bahor», Z. Inog'omovning «Arpa o'rimi», «Choyga», R. Temurovning «Bibixonimda bahor», «Ulug'bek madrasasi» asarlari mualliflarga shuhrat keltirdi.

Natyurmort – fransuzcha so'z bo'lib, «jonsiz tabiat» degan ma'noni anglatadi. Bu janrda musavvir asosaninsonni o'rab turgan atrof muhitdiginarsalar, turmushdaqo'llanadiganbuyumlar, oziq- ovqat mahsulotlari, gullar, meva va boshqalarni tasvirlaydi. U o'z asarida tevarak-atrofdagi narsalarni tasvirlash orqali uningxarakterlixususiyatlarini, voqeaqaysi davrda ro'y berayotganliginiham ko'rsata oladi.

Tarixiy janrda ishlangan suratlar orqali biz uzoq o'tmishda bo'libo'tgan voqeа-hodisalar, tarixiy shaxslar, xalqlarning turmush madaniyati bilan tanishamiz. Tarixiy janrning ko'rinishlaridan biri jang (botal) manzaralaridir.

Botal janr – «botal» fransuzcha so'z bo'lib, «jang», «urush» ma'nosini bildiradi. U jang manzaralarini o'zida aks ettiradi. Bu janrda jang va harbiy yurishlar manzarasi asosiy o'rinni egallaydi. Botalist – rassomlarning asarlarida jangchi obrazi, uning qahramonligi, mardligi jasorati hamda o'z ona Vataniga bo'lgan cheksiz muhabbati ifodalanadi. Leonardo da Vinchi, M.B.Grekov, G.K. Saviskiy, A.A.Deyneka, V.V.Volkov va boshqalar ana shunday musavvirlardandir. Animalistik – janr o'zgachatasviriy san'at turidir. Ulotincha «anima», «hayvonotolami» degan ma'noni bildiradi. Animalistik rassom hayvonot dunyosiga zo'r qiziqish, sevgi va mahorat bilan yondoshadi.

Hayvonot dunyosi ibridoiy odamlar hayotida kata ahamiyatga ega bo'lgan. O'sha davrda ular g'orlarning devorlariga kiyik, qo'tos, mamontlarning suratlarini chizganlar. Qadimgi Yaponiya va Xitoyda hayvonlarning tasvirlari dekorativ naqshlar tuzishda hamda monumental kompozisiyalar yaratishda asosiy

hisoblangan, XYI asrga kelib hayvonot olami anatomiyasini buyuk musavvirlar Leonardo da Vinchi va A. Dyurerlar ishladilar.

Keksa haykaltarosh va grafik musavvir V.A. Vatagin o'zining asarlarida to'rt oyoqli do'stlarini haqqoniy va ishonchli tasvirlaydi. Mashg'ulot rahbari o'quvchilarga nazariy bilim berish jarayonida mazmuniy to'liq ochib berishi uchun jonli nutq orqali so'zlash bilan birga musavvirlar asarlaridan surat – lavhalar, adabiyotlar, kino va diafilmlar va slaydalardan unumli foydalanishi maqsadga muvofiqdir.

Maishiy janr: tasviriy san'atda bu janrdagi asarlar kishilarning kundalik hayotini, turli voqealarni o'zida mujas samlashtiradi. Aksariyat rangtasvirda aks etuvchi maishiy janr ilk bor XYII asrda yashab ijod etgan Golland rassomlari – Piter de Xox, Ostade, Sten, Terborx, Vermer kabilar ijodida namoyon bo'ladi. Realistik rassomlardan P. Fedotov, V. Perov, V. Maksimov, V. Makovskiy, K. Saviskiy, I. Repin kabilar maishiy janrnning taraqqiyotiga katta hissa qo'shdilar. O'zbek rassom laridan R. Ahmedov, M. Saidov Z. Inog'omov, R. Choriyev, G'. Abdurahmonovlar ham shu janrda barakali ijod etib keldilar.

Rang tuslarining nomlari va ranglar gammasi xarakteristikasi:

iliq va sovuq ranglar.

Rangtasvir mashg'ulotlarida ranglar bilan ishslashda talabalarni ko'pchilik hollarda qiy nab qo'yadigan narsa ranglarning o'zbekcha nomlarini yaxshi bilmaslikdir.

Talabalarga rangtasvir mashg'ulotlarini olib borish uchun bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisi rangtasvir asoslarini puxta egallash va rangshunoslik nazariyasini mukammal bilishi shart. Shuning bilan birga realistik rangtasvirning nazariy asoslari ilmini o'zlashtirish va amaliy mashq qilish natijasida savodli rangda ifoda yo'llarini o'rganish mumkin. Bu hol, ayniqsa, natyurmort ishslashda, uning ranglari to'g'risida so'z yuritganda ko'zga yaqqol tashlanadi. Ma'lumki bo'yoqlarning 150 dan ortiq ruscha tuslari mavjud.

Ma'lumki tasviriy san'atning barcha turlarida rang muhim rol o'ynaydi. Rang gammasi deganda tasvirlarni ishslash jarayonida qo'llanadigan tus va ranglarning o'zaro muvofiq kelishini tushunamiz. Bu holatni quyidagi jonli misol bilan izohlasak o'rinnlidir, masalan, musiqa san'atidagi ovozlar ma'lum notalar yordamida belgilanadi va foydalaniladi. Ular o'z holicha alohida-alohida, bir-biri bilan uyg'unlashtirilmay chalinsa ma'nosiz uzuq-yuluq ovozlardan iborat bo'lib qoladi.

Agar ma'lum bandlikda va tartibda uyg'unlashtirib chalinsa yoqimli bo'lib eshitiladi. Ma'noli tasavvurlar zavq berish qudratiga ega bo'ladi. Ularning sifati ovozlari o'rtasidagi vaqt masofasi, ovozlar yo'g'on-ingichkaligiga ham bog'liq. Rangtasvirlarini shlash jarayonidaham xuddi keltirgan misolimiz kabitdir, ya'ni har bir rang va tusning o'z yorqinligi va to'q- ochligi mavjud. Ularni nechog'lik bir-biriga mosini topib, o'zaro muvofiq tarzda qo'llasak shunchalik tasvir sifatida aksini beradi, ma'no tashish quvvatiga ega bo'ladi. Agarbo'yoqlarni tasvir ob'yektiga zidholda birini juda yorqin, boshqasini nursiz qilib o'zaro bog'liqligiga moslamay ishlatsak, rangtasvir ma'nosiz va ta'sirsiz chiqib qoladi. Ranglarning yorqinlik kuchi va to'q-ochligi xuddi tabiatdagidek qilib olish va tasvirlashda qo'llash juda qiyin. Shu sababdan ham ular ochroq yoki to'qroq gammalarda tasvir ob'yektlariga mos tarzda, ma'lum nisbatlarda qilib olinadi. Mo'ljaldagi olingan gammaga moslab tasvirning eng to'q va eng och qismlari darajasi belgilab olinadi. Shunda ishlangan tasvirlar yaxlitlik, qiziqarlilik kasb etadi, ta'sirchan chiqadi.

Har bir narsa va xodisa tasvir etilar ekan, uni xuddi aslidagidek qilib aks ettirish mumkin emas. Buni ko'pchilik san'at nazariyotchilari va rassomlar, amaliyotchilar doimo ta'kidlab keladilar. Zero, tabiatni tasvirlash undan olingan tasuvvurning qay darajadaligiga bog'liq muhimi tabiat ko'rinishi realligi tasavvurini obrazli tarzda ifoda etsa ishonarli bo'lsa shuning o'zi kifoya, o'zbek rassomlari ichida ham rangga juda e'tiborli munosabatta bo'ladigan, uning go'zal uyg'unligini ifodalab bera oladiganlari ko'p. Bunday usta, mahorat egalari mo'yqalam sohiblaridan M.Nabiiev, R.Axmedov, R.Choriyev, B.Burmakin, B.Boboyev, J.Umarbekov, A.Mirzayev, A.Ikromjonov, M.Toshmurodov, A.Nuriddinov,

O.Qozoqov va boshqalarning nomlarini misol qilib keltirishimiz mumkin. Ularning ko'plab ajoyib asarlari fikrimizni tasdiqlab turibdi.

Ma'lumki, tasvir ishlashni rang vositasida ishslash jarayonida atrof-muhit holati muhim ahamiyatga ega. Chunki chizilayotgan ob'yeqtga yorug'lik manbai atrofidagi boshqa buyumlarni ta'siri kuzatiladi. Ular o'z rangi, tusi bilan o'zaro muvofiq yoki nomuvofiq bo'lishi mumkin. Rassom ana shunday o'zgarishlarni chuqur anglab, tahlil qilib, so'ng ifoda etishi kerak. Aks holda tasvir jonsiz, ta'sirsiz chiqib qoladi, o'rganayotganlar uchun bunday holatlarni hisobga olib tasvirlashda natyurmortlar juda qo'l keladi. Chunki unda buyumlardagi soya, teri, shu'lalar, rang tuslarining o'yini ifodaviyligi yaqqol ko'rinish turadi. Ular tasvir shaklini, yorqinligini, yaxlitligini ko'rsatishda xizmat kiladi. Natyurmortni qanday xonada qo'yilganligini ham uning yorug' yoki qorong'iligi nur derazadan qay holatda va burchak ostida tushayotgani xam muhim ahamiyat kasb etadi. Shu'la («blik») va rangli shu'la («refleks») natyurmortdag'i deyarli barcha predmetlarda aks etib turadi. Ayniqsa, yaltiroq sirtli narsalar sathida bu yaxshi sezilib turadi. Chunki ular yorug'likni yutmaydi, balki yog'dulanib qaytaradi. Nurni o'zida sindirib yuboradigan sirtli narsalarda aks shu'lalarni ba'zan sezib olish qiyinroq bo'ladi. Ammo ularni talaba ilg'ab olishini va tasvirlashni doimo mashq qilishi kerak. Buning uchun xar bir o'rganuvchi yosh rassom o'z bilimini ham nazariy, ham amaliy jixatlarini kitob qo'llanmalaridan o'qib rangtasvir namunalarini muzey va ko'rgazma zallarida ko'rish mumkin.

Rangtasvir asarlarini yaratishda, qalamtasvirning ahamiyati

Rangtasvirning ilmiy negizini rangshunoslik fani tashkil qiladi. Rangshunoslik bo'lg'usi rassomlarga ranglarni tabiatda hosil bo'lishi va tarqalishi masalalarini ularning atrof-muhit ta'sirida o'zgarib ko'rinishini, bo'yoqlarini tayyorlash va ulardan foydalanish yo'llarini o'rgatadi.

O'rta Osiyoda ranglar xaqidagi ta'limot qadimdan kitob miniatyurasi, naqqoshlik, devorlarga freska, panolar ishslash bilan bog'liq holda rivojlanib kelgan. Chunki musavvirlilik hunari rang tanlash va ularni tayyorlay bilishni talab etadi.

Shuning uchun har bir shogird, avvalo, rang tayyorlash sirlarini va shu ishiga bog'liq kimyoviy jarayonlarni o'rgangan bo'lish kerak.

Ranglarni tabiatda qanday xosil bo'lishi va tarqalish hodisalari qadimdan olimlar va rassomlarning diqqatini tortgan. Uyg'onish davri buyuk rassomlari va nazariyachilari Mon Battista Alberti, Leonardo da Vinci va boshqalar rangtasvir haqidagi asarlarida ranglarning xususiyatlari haqida yozganlar.

Atoqli va mashhur olimlar Nyuton, Lomonosov, Gelmgolslar ranglarning mohiyatini ilmiy asosda tekshirganlar. Issak Nton qator tajribalar o'tkazib, oq yorug'likning ko'p rangli ekanligini isbotlagan, ekranda spektor ranglarni hosil qilgan. Buning uchun Nyuton quyoshning oq yorug'ligini derazadagi qora pardaning ingichka tirkishidan o'tkazgan va yo'liga uch qirrali prizma qo'ygan, natijada ekranda har xil ranglardan iborat keng yorug'lik dastasi ko'rilgan. Ekranda ko'ringan ranglar spektr ranglar bo'lib, ular quyidagicha joylashgan edi: qizil, zarg'aldoq, sariq, yashil, zangori, ko'k va binafsha rang maxsus asbob - spektroskop yordamida ko'plab aniq va ravshan spektrlarni hosil qilishi mumkin. Oq yorug'lik aslida murak kab bo'lib, rangdorlik jihatidan shunchalik turli- tumanki, bir rangdan ikkinchisiga o'tish da yana bir qator rang tuslari seziladi. Spektr ranglarni yomg'ir yog'ib o'tgandan keyin osmonda paydo bo'ladi kamalakda, favvoralardan otilayotgan suv zarralarida kuzatish mumkin. Spektr ranglarni qayta bir joyga to'plansa, oq yorug'lik hosil bo'ladi. Nyuton ranglarni fizika fani nuqtai nazaridan o'rgangan bo'lsa, nemis shoiri va san'atshunos I.V.Gyotenni ko'proq ranglarni kishi organizmiga ko'rsatadigan ta'siri qiziqtirgan. Gyote «ranglar haqidagi ta'limot» nomli asarida ranglarni iliq va sovuq tuslarga ajratib, iliq (sarg'ish-qizil) ranglar kishida kayfu-chog'lik tuyg'usini, sovuq (havorang-yashil) ranglar esa ma'yuslik tuyg'usini uyg'otishi haqida yozgan.

XIX asrda nemis tabiatshunos olimi G.L.Gelmgals rangshunoslik nazariyasida muxim yangilik yaratgan. Ko'p yillik tajribalari asosida xromatik ranglarni uchta asosiy alomati-rang toni (nomi), rangning och-to'qligi va to'yinganligi asosida turkumlash kerakligini ko'rsatgan.

Rang muammolarini o'rganishga yapon olimlari hamisha jiddiy qarashgan. Hozir ham dunyoda yagona bo'lgan Tokio rang institutida inson qalbiga ta'sir etadigan tabiat Hodisasi-rang atroflicha o'rganiladi.

Ranglarning nomini ifodalovchi, ya'ni ularni birinchi qizil, ikkinchisini ko'k, uchinchisini binafsha va hokazo deb atalishiga asos bo'lgan belgisi rang toni deyiladi. Biroq xromatik rangga ozroq kulrang qo'shsak, uning sho'xchangligi pasayib, nursizlanadi. Bu hol rangning kam to'yinganligi, ya'ni uning tarkibidan sof bo'yoqning kamayganligidan darak beradi.

Demak, rangning to'yinganligi deganda, uning kulrangga nisbatan rangdorlik darajasini , tozaligini tushunish kerak.

Yuqorida aytilganlardan ma'lum bo'ladiki, xromatik ranglar bir-biridan uchta asosiy xossasi-rang toni (rangning o'zi), rangni och-to'qligi va to'yinganligi bilan farq qilar ekan. Spektrni sinchiklab kuzatsak, uning eng chekkasidagi qizil va binafsha ranglar orasida o'xshashlik alomatlarini sezamiz. Ikkala rang bir-biriga qo'shilsa, ularning oralig'ida qirmizi ranglar hosil bo'ladi. Bu hosil bo'lgan rangni qizil rang bilan binafsha rangning o'rtasida joylashtirib spektr tutashtirilsa, xalqa kelib chiqadi. Buni rangshunoslikda ranglar doirasi deb yuritiladi. Ranglar doirasidan qizil, qizg'ish zarg'aldoq, sariq, sarg'ish yashil, yashiltab zangori havorang, ko'kimtir havorang, ko'k, ko'kimtir binafsha, qirmizi ranglarning har xil tuslari ko'rindi.

Ranglar doirasida rang tuslari juda ko'p bo'lishi mumkin. Lekin ko'zlarimiz ularni 150 taga yaqinini ajratishga qodir. Ranglarning doira bo'ylab joylashish tartibi muayyan saqlanadi. Rang doirasi ikki teng bo'lakka bo'linsa, birinchi yarmida qizil, zarg'aldoq, sarg'ish yashil (pistoqi) ranglar, ikkinchi yarmida esa yashil havo rang, feroza, zangori ko'k binafsha ranglar joylashadi. Doiraning birinchi yarmidagilar iliq ranglar, ikkinchi yarmidagilar esa sovuq ranglardir. Bunday nomlanishiga sabab-qizil, sariq ranglar olovni, qizigan temirni , cho'g'ni eslatsa, xavo rang, zangori, yashil ko'klar esa muzning, suvning rangini eslatadi. Bu farqlanish nisbiy bo'lib, xar qanday iliq ham o'ziga nisbatan iliqroq rang yonida

sovuj bo'lib ko'rinishi va aksincha, sovuq rang o'zidan sovuqroq rang yonida iliqroq tuyulishi mumkin.

Kimyo fani bo'yoqlarning topilishiga, moddalarni kimiyoziy usulda qo'shib, bo'yoqlarning reseptlarini aniqlashga yordam beradi. Buyoqlar asosan ikki xil yo'l bilan tayyorlanadi. Buyoqlarning nomlari ko'pincha, qazilmadan qazib olingan joyning nomi bilan ajralib kelinadi.

Masalan, buyoqlardan neopolitan sarig'ini olsak, bu sarg'ish malla rang bo'yoq Italiyaning Neapol shaxri atrofidagi tog'lardan vulqon bilan otilib chiqqan moddadan tayyorlanadi. Xalilovka oxrasi-oltin tusli bo'yoq bo'lib, Uralda Orenburg rayonida Xalilovka qishlog'ida olinadi. Hind sarig'i-to'q sariq bo'yoq, Hindistonning Bengaliya shtatida o'sadigan xurmo daraxti yaprog'idan tayyorlanadi. Yana ayrim yorqin qizil bo'yoqlarni kichkina jonivorlardan-dub daraxtida yashovchi qo'ng'izcha (kattaligi 2-8 mm). Shimoliy Amerikada yashovchi qizil chuvalchangdan tayyorlanadi.

Tasviriy san'atda uning rangtasvir va grafika tushunchalari mavjud bo'lib, ular bir-biridan ishlanish yo'llari hamda uslublari, tasviriy vositalari bilan farqlanib turadi. Rang inson hayotida muhim rol uynaydi. U turli vaziyatlarda odamga har xil ta'sir etadi. Shuning uchun biz ayrim paytlarda ranglarni "quvonchli" va kayfiyatimizni tushkunligini ifoda etishi mumkin bo'lgan "xira" deb atashimiz bejiz emas. Inson qadimgi paytlardanoq rangning ana shunday xususiyatlarini hisobga olib, o'z faoliyatida unumli foydalanib kelganligi ma'lum. Ayniqsa, shunday vosita sifatida rassomlar undan ustalik bilan foydalanganlar. Asarlariga har xil ranglar bilan jilo berib, odamlar kayfiyatiga turlicha ta'sir etib fikrlar uyg'otadigan tasvirlar yaratishga erishganlar. Shuning uchun tasviriy san'atning juda ko'p turlari va janrlarida rang hamda uni ishlata bilish juda katta ahamiyatga egadir. Ammo u qalamtasvirning muhim ekanligi bilan quvvatli ekanligi ma'lum haqiqatlardan eng asosiysi desak to'g'ri bo'ladi. Shuning uchun qadimdan qalamtasvir chizishga rangtasvirning asosi sifatida karash shakllangan. Ammo rang hususiyatlarini yaxshi bilish har bir tasvir chizishni o'rganuvchi uchun juda ahamiyatlidir.

1.2 Akvarelda ishlash texnologiyasi va usullari.

O'rta Osiyoda akvarelda kitoblarni chiroyli qilib bezash maqsadida qo'llanildi. O'rta Osiyo rassomlari ichida, ayniqsa, Kamoliddin Behzod kitoblarga akvarel bilan miniatyura hamda illyustrasiyalar ishlashda shuxrat qozondi. XIX asrning oxirlarida akvarelda I.YE.Repin, V.A. Serov, M.A.Vrubel, kabi rassomlari o'z asarlarida yangicha sifatlarini namoyish qildi. Rus tasviriy san'ati namoyondalari A.M.Grasimov, S.V.Gerasimov, O.G.Vereyskiy, Kukrinskiylar N.N.Volkov, YU.I.Neprensev va boshqalar ham akvarelda ko'plab qiziqarli asarlar yaratdilar. Ular yaratgan asarlarning ko'pchiliginini kitoblarga ishlangan illyustrasiyalar tashkil etadi. O'zbekistonda esa akvarelda ishlash san'atining rivojini B.Hamdamiy, O'.Tansiqboyev, G. Shevyakov, G.Siganov, K. Cheprakov va ayniqsa CH. Ahmarovning ijodida ko'rish mumkin.

Akvarel bilan ishlashusullarining murakkablashuvi, takomillashuvi uningurlarini ko'payishiga vaxilma – xillashuviga olib keldi. Hozir akvarelningbir qancha turlari mavjud.

Chunonchi qattiq, yumshoq va xamirsimon xoldagi akvarellar. Bu bo'yoqlar badiiy bilim yurtlarida, ayniqsa amaliy va dekorativ san'at o'kuv yurtlarida kompozisiyalar, eskizlar tuzishda qo'llaniladi. Akvarel bo'yoqlari ikki qismdan: bog'lovchi element hamda bo'yoq kukinidan tarkib topadi. Bog'lovchi emulsiya tayyorlanadigan moddalarni tanlashda bo'yoq rangini o'zgartirmaydigan, qog'ozga surtilganda tekis yotadiganlaridan foydalanadi.

Bog'lovchi moddalar asosan gummi arabika, olcha, olxo'ri va boshqa daraxtlarning shiralaridan tayyorlanadi. Daraxt shirasidan, masalan, olcha shirasidan juda osonlik bilan eritma tay.rlanadi. Shuningdek, bo'yoqning tez-qotib qolmasligi, pishiqligini va suvda eruvchanligini oshirish uchun unga asal, glisirin, dekstrinlar qo'shiladi. Bog'lovchi modda tayyorlanayotganda har bir element ko'rsatilgan miqdorda olinishi lozim. Har bir akvarel uchun bog'lovchi emulsiya turli miqdorda tayyorlanadi.Taxtacha ko'rinishdagi akvarel uchun emulsiya shiraning dekstrining suvdagi eritmasi meva shakari, ho'kiz o'tidan

tayyorlanadigan aralashmadan iborat bo'ladi. Dastavval shiraning hamda dekstrining suvdagi eritmasi tayyorlanadi.

Meva shakari suv bilan aralashtirilib sirobsimon eritma hosil qilinadi. Ana shu uch xil eritma birgalikda to'xtovsiz aralashtiriladi. Hamda unga o'tdan tayyorlangan aralashma va fenaldan keraplicha tomiziladi. Chinni idishlardagi yumshoq akvarel uchun emulsiya tayyorlashda esa yuqoridagi moddalar ko'proq miqdorda oshrib meva shakari o'rniga asalari mo'mi va glisirin qo'shiladi.

Tyubiklarda chiqariladigan akvarel tarkibidagi bog'lovchi elementining ko'pchilik qismini asal tashkil etadi. Glisirin va shira ozroq miqdorda qo'shiladi.

Akvarel tayyorlashda qo'llaniladigan bo'yoq kukunlari tabiiy yoki sun'iy kukunlar bo'lishi mumkin. Ayrimlari o'simliklar yoki hayvonlarda o'raydigan pigmentlardan masalan , jigar rang , qarminli bo'yoqlardan tayyorlanadi. Bo'yoq kukunlarini tanlashda va tayyorlashda ularning tiniqligiga, bir-biriga yaxshi aralashishiga e'tibor berish lozim. Masalan, qo'yidagi bo'yoq kukunlardan foydalanish tavsiya etiladi. Sariq kukunlar tabiy,jigar, rang, sariqmars, zarg'aldoq mars va hakozolar.

Qizil kukunlar: qizil tusli mars, qirmizi.

Binafsha: binafsha tusagi kukun.

Yashil kukunlar: zumrad rang, yashil rangli ranglar.

Zangori: zangori laklar.

Jigarrangli kukunlar : kuydirilgan jigar rang, jigar rang mars.

Qora kukunlar : -uzumdan olinadi.

Akvarel tayyolash uchun bo'yoq moddasi tayyor emulsiyaga aralashtiriladi tosh plita yoki mahsus xovonchada yaxshilab ishlanadi. Agarda sinash uchun olingan bo'yoq suvda yaxshi erishsa, aralashtirish hamda ishlov berish uchun tayyor bo'lgan xisoblanadi. Shuni esda tutish lozimki, qo'yilgan akvarel bo'yog'i qurilganidan keyin o'z rangini biroz o'zgartirib olishadi. Bunga bo'yoq qavatidagi suvning bug'lanishi, qog'ozga singishi ta'sir etadi.

Endi akvarel, tush va ularni ishlatishda qo'llaniladigan ba'zi qurol va vositalar haqida to'xtalib o'tamiz:

1. Bir akvarel mo'yqalamda oson olinishi, suvda yaxshi eriydigan bo'lishi kerak. Akvarel boshqa bo'yoqlardan qog'ozga yubqa qalam tarzida o'tishi tekis, silliq surkalishi, qo'yilib va bir joyga qatlam tarzida yig'ilib qolmasligi bilan ajralib turadi. Akvarelga ko'p vaqt suv tegmasa, xaddan tashqari qUzbekiston Respublikasiqshab ketib, uni ishlatish qiyin bo'lib qoladi. Shuning uchun chinni idishlar va tyubiklardagi akvarelni qorong'u va slqin joylarda saqlash lozim. Agar tyubikdagi akvarel qotib qolsa tyubikka mris bilan suv yuborish yoki uni suvli idishga biror soat solib qo'yish tavsiya etiladi. «Leningrad» markali akvarel sifatli akvarellardan xisoblanadi va u plastmassa idishlarda ishlab chiqariladi. Unda bo'yoqlarning 24 hili mavjud bo'lib, plastmassadan tayyorlangan palitra ham joylashtirilgan.

2. Tush asosan yozish-chizish, bezak va boshqa ishlarda kenqo'llaniladi. Ularning xillari juda ko'p. Tushlar suyuq holda shisha idishlarda va taxtacha hamda qalamcha shaklida qattiq holatda ishlab chiqariladi.

Kerakli tushlar maxsus idishlarda suyultiriladi. Ulardan axromatik ranglarning har xil tuslari xosil qilinadi. Tushni juda quyuq ishlatilmaslik lozim. Ular etyudlar uchun muljallangan bo'lib, 20-30 donasi kerakli o'lchamda bir-birlariga yelimlab qo'yilgan bo'ladi. Qog'ozlarni bir-birlaridan ajratib olishda birorta uchi o'tkirroq asbobdan foydalilaniladi. Orqasiga qo'yilgan karton esa uni g'ijim bo'lishidan asraydi.

3. «Stirator» bittasi kattaroq, ikkinchisi kichikroq o'lchamga ega bo'lgan va bir-birini ichiga kirib turadigan ikkita ramkadan iborat ishlatishda qo'llangan qog'oz ikkala ramka orasiga qo'yilib siqib jipslashtiriladi. Stirator bundan tashqari ramka va planshetdan iborat bo'lishi ham mumkin. Bunday stirator ikki oyoqli qilib yasaladi. Qog'oz stiratorga tortilganidan keyin uni tizza ustiga g'o'ygan holda ishlatish mumkin. Shuningdek stirator oyog'siz holda ishlatilganda esa mahsustutqichga o'rnatiladi. Stiratorga tortiladigan qog'oz oldin suvga ho'llab olinadi. Qog'ozni ho'llash uchun yumshoq lattadan foydalilaniladi. Burchaklarida 1,5-2 smgacha joy quruq qoldiriladi. Qog'ozni ikki tomoni ham xuddi shu zaylda qo'llaniladi, so'ng ramkaga tortilgan qog'oz o'zgarmas temperaturali joyiga qo'yib

quritiladi. Stirator asliga qarab rasm ishlashda va manzaralarni tasvirlashda qulaydir.

4. Planshet tasviriy san'at darslarida keng qo'llaniladi. Planshetga qog'oz tortishida uning to'rttala tomoni 1,5-2 sm buklanadi. Qog'ozning teskari tomoni jiqqa ho'l latta suvini o'ziga shishib olguncha surtiladi. Chetga qayrilgan burchaklari eng quruqligicha qondiriladi. So'ngra qog'ozning old tomoni aylantirib g'o'yiladi va u ham chetki tomonlariga tekkizmasdan ho'llanadi. Undan keyin burchagidan bir tomoni, so'ngraqaramaqqarshi turgan tomoni bosib tortilishi lozim. Qolgan ikki tomoni ham xuddi shunday diogonal bo'yicha yelimlanadi yoki knopka bilan qistiriladi. Qirralariesabarmoqyordamidatekisqilibyopishtiribchiqiladi. Yelimlangan tomonlarida xech qanday tirishgan va qabariq joylar bo'lmasligi lozim. Qo'l planshet mo'tadil temperaturali joyga qo'yib quritiladi. Shundagina u ishga yaroqli bo'ladi.

5. Yig'ma qopchiq ham etyudlar ishlashda ekskursiyalarga chiqqanda juda as qotadi. Uni brezent matodan ixchamgina qilib tikib olish mumkin kerakli jixozlarni yig'ma qopchiqqa tartib bilan joylashtirish lozim. Uning yuqori qismiga tasmalar tikib qog'oznimaxkamlab qo'yish kerak. Pastki qismiga esa xar-xil o'lchamdag'i cho'ntaklar tikiladi. Cho'ntaklarga esa maxsus idish, katta akvarel va xakozolar solib olinadi. Materialni tikayotganda orasiga karton bo'laklarini kerakli o'lchamlarda qo'yish tavsiya etiladi Qo'yilgan karton bo'laklar qog'ozlarni buklanib qolishidan saqlaydi.

6. Mo'yqalamlar. Akvarel bilan ishlayotganda foydalanish lozim , mo'yqalamlar ikki xil bo'lib, ularning bir xillari moyli bo'yoqlarga, boshqa xillari esa akvayerel bo'yoqlarga, boshqa xillari esa akvarel bo'yoqlarga muljallangan (yelimlash uchun mo'ljallangan mo'yqalamlar uchun mustasno). Ularni ko'rinishiga qarab quyidagicha farqlash mumkin. Yalpoq (moyli bo'yoqlar uchun muljallangan mo'yqalamlar kurakcha va dumaloq shaklda bo'ladi). Akvarel uchun ishlatiladigan mo'yqalamlar yumaloq bo'lib uch tomoniga qarab ingichkalashib boradi va bu juda mayda detallarni ishlash uchun qulaylik tug'diradi. Rasm

ishlaganda qog'ozni yuzi buzilmaslik uchun bu mo'yqalamlar maxsus yumshok yunglardan yasaladi. Akvarel mo'yqalamning kolonok, olmaxon, savor yungidan yasalgan turlari mavjud.

Mo'yqalamning ishga yaroqli yoki yaroqsizligini bilish uchun uni toza suvgatiqib olib silkitish kerak. Agar shunga mo'yqalamning uchlari to'planib qolsayaroqli, to'zib tursa-yaroqsiz bo'ladi. Mo'yqalamningt bandida nomeri bo'ladi. Bu nomer mo'yqalam mo'y qismining kengligini bildiradi. Nomerdag'i sonlar ortib borishi bilan yung qismining kengligi ham ortib boradi. Shuning uchun akvarel bilan ish ishslashda mo'yqalamning kerakli nomeri yuzaning katta yoki kichikligiga qarab tanlanadi. Tasviriy san'at darslarida ingichka mo'yqalamlardan kam foydalaniлади, chunki ular bilan katta rasmlarni bo'yab bo'lmaydi. Bu xildagi mo'yqalamlar ko'proq mayda detallarni hamda dekorativ bezash ishlaridagi naqshlarni bo'yashda ishlatiladi. Yuqorida nomeri ko'rsatilag yo'g'on xajmdagi mo'yqalam bilan katta rasmlarni bo'yash mumkin, uning ingichka uchi esa suratning mayda detallarini ishslash imkonini beradi. Umuman olganda butun ishni bitta mo'yqalamda bujara olish imkoni tug'iladi. Shunda ko'z hamda qo'l xarakati uyg'unlashadi. Tajribali rassomlar ko'pincha ikki tomonida ham mo'yi bo'lgan mo'yqalamlardan foydalanadilar. Ularga maxsus buyurtma berish tayyorlatish mumkin.

Bulardan tashqari, xar-xil o'lchamdag'i kurakchasimon, yalpaq mo'yqalamlar ham ishlatiladi. Endi mo'yqalamlarni ishlatishning bir qator usullari haqida gapirib o'tamiz. To'g'rirog'i, bu usullar, tavsiya etilayotgan yo'llanma bo'lib, ular umumiy qoida tarzda qo'llanilmaydi. Chunki ba'zi mo'yqalamni boshqacharoq vaziyatda ishlatishga to'g'ri kelib qoladi. Bordiyu, mo'yqalam bilan keng yuzalarni bekitishga to'g'ri kelsa,

uni burchak ostidan ushslash hamda ishni qog'ozning tepe qismidan uzib-uzib bo'yoq berishdan boshlash zarur. Bunda mo'yqalam qog'ozning chap tomonidan pastka va ayni vaqtida o'ng tomonga qaratib tez-tez xarakatlantiriladi. Agar yupqa va tirnoq bo'yash kerak bo'lsa, mo'yqalam tik ushlanadi, hamda ohistagini qog'oz bo'ylab yurgiziladi. Kuchli mazok hosil qilish (uzib-uzib bo'yoq

berish)uchun mo'yqalam kerakli joyga qattiqroq bosiladi va darhol ko'tarib olinadi. Oqib ketayotgan bo'yoq esa toza mo'yqalamga shimdirib olinadi. Xomaki rasm ishlashda kerakli bo'yoqni o'z ichida birndaniga qo'yish aloxida maxorat talab qilinadi. Lekin mo'yqalam qog'ozga oxirigacha bosib yuborilsa, hamma bo'yoq birdaniga oqib tushib ketishi mumkin.

Qo'yilgan mazoklarni xarakterli bo'lishi muxim axamiyat kasb etadi. Mo'yqalamlarni ishlatayotganda ayniqlsa uning mo'y qismi tez ishdan chiqishini unutmaslik kerak. Bo'yoq olinayotganda mo'yqalamni xaddan tashqari ko'p ishqalash tavsiya etilmaydi, sababi mo'y qismi tez to'kilib keatdi. Bunda mo'yqalam bo'yoq ustida oldinga va orqaga hamda chapga va o'nga tomon tez-tez, yengil-yengil yurgiziladi. Bir marta bo'yoq olinganidan so'ng, ikkinchi olishga mo'yqalam dastavval tozalab yuviladi va latta bilan siqib tashlanadi. Toza suvga botirib olinganidan keyingina navbatdagi bo'yoq olinadi.

Dastlab sakkiz nomerlaridan to o'n, o'n ikkinchi nomergacha bo'lgan mo'yqalamlarni ishlatish mumkin. Keyinchalik esa, o'n ikki, o'n turt nomergacha, balki undan kattaroq nomerli mo'yqalamlar ham ishlatiladi.

Mo'yqalam ishlatilib bo'lingach, tozalab yuviladi va latta bilan siqilganidan so'ng tirkakka solib qo'yiladi yoki mo'y qismi yuqoriga qilingan holda stakanda saqlanadi. Ba'zan mo'yqalamni yung qismini stolning chetidan bir oz chiqarib qo'yish ham mumkin.

7. Palitra. Tasviriy san'at darslarida oddiy, oq rangdagi yassi laganchadan palitra sifatida foydalanish mumkin. Etyud ishslash paytida metalldan yasalgan va sirlangan yoki plastmassadan yasalgan palitralardan foydalangan ma'qul. Palitraning eng yaxshi tomoni shundaki, unga qo'yilgan bo'yoqlar aniq va ravshan, tiniq bo'lib ko'rinish turadi. Shuningdek uzoq vaqtgacha qurilmasdan saqlanadi. Palitiraning rangi oq bo'lganligi sababli bo'yoqlarni tuslari o'zgarmasdan ko'zga tashlanadi. Palitradan foydalanish usullari va unga bo'yoqlarni joylashtirish tartibi ko'rsatilgan. Bo'yoqlar ko'zga qanchalik yaqin bo'lsa ularni bir-birlarini ajratish ham shunchalik oson va qulay bo'ladi. Politraga ranglarni joylashtirishda muayyan tartibga rioya qilish taldabalarning sifatlari

ishlashlariga, ko'zları va qo'llarining avtomatik ravishda xarakat qilishga, ishni tez bajarishlariga yordam beradi va ularni ortiqcha qiynab qo'ymaydi.

Politraga oldin iliq ranglardan sariq bo'yoqlar, keyin zarg'oldoq qizil, rang yoki jigar ranglar va nihoyatda zangori, binafsha ranglar (bular sariq ranglar jumlasidandir) qo'yiladi. Politraga qo'yilgan bo'yoqlarni bir-biri bilan aralashtirishda iflos mo'yqalamlardan qat'iyan man qilinadi. Shu tariqa politradagi bo'yoqlar toza saqlanadi. Ish tamom bo'lgandan so'ng politra yaxshilab tozalab qo'yiladi, ayniqsa politraning suv tekkan joylari yaxshilab artiladi.

8. Stakan suv olish uchun eng yaxshi idish hisoblanadi. Ekskursiyalarda, etyud ishlashda metal yoki shishastakanlar bankalar juda qo'l keladi. Akvarel bilan ishslashda suv olish uchun qo'llaniladigan idishlarning turlari har-xil bo'lishi mumkin.

9. Qalamlar akvarel bo'yog'ida ishlangan rasmlarning yaxshi chiqishida muxim rol o'ynaydigan vositalardan biridir. Tasviriy san'at darslarida asosan o'rtacha yumshoqlikdagi qalamlardan foydalaniladi."TM" markali qalam chizish uchun juda qulaydir. Qalamlarning tomonida nomi, so'ngra esa qattiqroq yoki yumshoqlik darajasi yozib qo'yiladi. «T» qattiqlik ma'nosini anglatadi, uning yonidagi son qattiqlik darajasini ko'rsatadi. «2T» belgili qalam «T» belgili qalamdan qattiqroqdir. Tasviriy san'at darslarida qattiq qalamdan nafis joylarni shtrixlashda foydalaniladi. Ular chizmachilik darslarida ham qo'llaniladi. Yumshoq qalamga «M» belgisi qo'yilib, yumshoqlik darajasi sonlar bilan ko'rsatiladi. Rasmning sifati ko'pincha qalam o'zining yechilishiga bog'luq bo'ladi. Rasm chizish uchun ajratilgan vaqtidan unumli foydalanish maqsadida qalam uchini dars yoki mashg'ulot boshlanishidan oldinroq qo'ygan ma'qul. Qalamni ish joyida ochmaslik lozim, chunki grafitning ko'zga ko'rinxaydigan zararlari rasmni iflos qilib yuboradi. Eng yaxshisi qalamni quticha yoki qog'oz parchasi ustida ochishdir. Bunda chiqindilarni maxsus yashikka tashlash oson bo'ladi. Qalamni haddan tashqari bosib chiqish yaramaydi. Chunki uning uchi sinib qolishi mumkin.

O'quvchilarni qalamni ochilgan yeridan uzunroq ushslashga o'rgatish yaxshi natija beradi. Qalam umuman uchta barmoq bilan ushlanadi va unchalik qattiq siqib olinmasdan erkin yuritiladi. Uzunroq qalamlardan foydalangan ma'qul. Chunki kalta qalamlarda naturaning o'zaro nisbatlarini o'lchab chizish qiyinlashadi. Siyoh rangli qalamlarda rasm chizish mumkin emas: chiziqlqa suv tegsa, bo'yalib ketadi. Qalam bilan chizishda aniqlik, puxtalik va malakali bo'lish talab etiladi.

10. O'chirg'ich. O'chirg'ichlar ikki xil: qalamda chizilgan chiziqlarni o'chirishga mo'ljallangan hamda idoralar uchun chiqarilgan bo'ladi.

Noto'g'ri chizilgan tasvirni o'chirishdan oldin to'g'rilib chizib olish lozim. Shunday qilingan xato yaqqol ko'rinish turadi. O'chirg'ich bilan o'chirishdan qo'l faqat chizish bo'ylib bir tomonlama harakatlantiriladi. Shuningdek, o'chirg'ichni hadeb ishlatherish ham yaramaydi. Unda qog'oz yuzasiga bo'yoq yaxshi yotmaydigan bo'lib qoladi. O'chirg'ichni qo'lda uzoq ushlab turish mumkin emas. Chunki o'chirg'ich qo'lda ter bosib, qog'ozni kir qilib qo'yish mumkin.

Tasviriy san'at darslarida rangli tasvirlarning muvaffaqiyatli chiqishida akvarel bilan ishslashda orttirilgan tajribalar muhim rol o'ynaydi. Chunki bo'yoq bilan ishslash qanchalik puxta o'rganilgan bo'lsa rangli tasvirlar shunchalik yaxshi chiqadi.

Akvarel bilan ishslashda talabga javob beradigan qilib jixozlanish kerak. Shuningdek, planshet hamda molbertdan to'g'ri foydalanishni o'rganish, qog'oz yuzalarini har xil shikastlanishlardan ehtiyoq qilish lozim. Akvareldan foydalanishda uning sifatiga e'tibor berish darkor. Bo'yoqlarni maxsus idishlarda suv bilan aralashtirish va qog'oz bo'lagida sinab ko'rish tavsiya etiladi. Topilgan rang tusi kerakli darajaga yetgandagina undan foydalanish lozim. Akvarel bilan ishslash texnikasini puxta o'zlashtirish uchun dastlabki mashqlarni qora, to'q jigarranglarda bajargan ma'qul. Bu usulda ishslash monoxrom yoki grizayl metodida ishslash deb ataladi.

Akvarel bilan ishslashda quyidagi izchillikka riosa qilinsagina bo'yoqda ishlangan tasvirlar talabga javob bera olishi mumkin:

1. Kerakli bo'yoq maxsus idishda suv bilan aralashtirilib tayyorlanadi hamda qog'oz bo'lagiga surtib, sinab ko'rildi.

2. Qog'oz sirtiga bo'yoq berayotganda mo'yqalam hamisha eritmagan rosmana botirib olingan bo'lishi kerak.

3. Ostki qavatdagi buyoq qurimaguncha, navbatdagi bo'yoq qavati yotqizilmaydi. Keyingi qavat tez qo'yilishi lozim, aks holda ostki qavat yuvilib ketishi mumkin.

4. Akvarel bo'yoqlari bilan ishlashda oq bo'yoqdan foydalanilmaydi, chunki oq bo'yoq rolini oq qog'ozning o'zi bajaradi.

5. Qo'yilgan bo'yoq qavati ostidan qog'ozning sirti sezilib turishi lozim.

Agar taxtacha ko'rinishidagi akvarel ishlatilsa, bo'yoq tez-tez ho'llab turiladi, hamda toza mo'yqalam bilan olinadi.

Akvarel bilan ishlashni o'rganishda amaliy mashg'ulotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, bir rangning ustiga ikkinchisini qo'yib yangi tus hosil qilish mashqni olaylik. Bunda qo'yilgan xar ikkala rang ostidan ham qog'ozning sirti sezilib turmog'i darkor. Shuningdek, sovuq tusli rang ustidan iliq tusli rangni qoplash orqali yangi rang tusini hosil qilish yo'llarini puxta o'rganish kerak.

Bundan tashqari iliq rang ustidan sovuq tusli rangni qoplash yo'li bilan ham qo'shimcha rang tusini topish mumkin. Ayrim hollarda qo'yilgan ranglarning yorug'lik darajalari bir-birlariga tenglashtirish uchun ularning ustidan biror rangning suyuq, kuchsiz eritmasi bilan qoplاب tavsiya etiladi. Shuni esda tutish lozimki, muayyan rang ikkinchi bir rang bilan qoplanganda yorug'likning qaytarish xususiyatidan mahrum bo'ladi. Lekin oldin qo'yilgan bo'yoq qavatining ravshanlik darajasi hamda to'yinganligi muhim axamiyatga ega. Ustki qo'yiladigan qavati esa doimo oxangdor, juda tiniq bo'lishi va ostidagi rang tusini bo'g'masligi shart.

Rang tuslarini haddan tashqari to'q tusda olish yaramaydi. Aks holda rangli tasvirlarda keskin ko'zga tashlanadigan rang dog'chalari hosil bo'lishi mumkin.

Akvarel bilan ishlatishda bir rangning o'zidan har hil rang tuslarini xosil qilishni yaxshilab mashq qilish kerak.

O'quvchilarga yorug' , oq tusdagi rangni hosil qilish uchun suvni, tuq tusdagi rangni hosil qilish uchun esa bo'yoqni ko'proq qo'shish kerakligini o'rgatish kerak. Och tusdagi rangning hosil bo'lishini amalda ko'rsatish uchun suvli stakanga qizil rang aralashtiriladi. Stakanda hosil bo'lgan aralashmaga suv qo'shishni davom ettirsak, bu rang tusining ochlanib borishining guvohi bo'lamiz. Aksincha, aralashmaga qizil rang qo'shishni davom ettirsak, mazkur rang tusining to'qlashib borishini ko'ramiz. Bu xildagi mashqlarni faqat ranglar yordamida bir necha marta bajarib ko'rish mumkin.

Ranglar to'yinganligini asta-sekin o'zgarib borishi haqida alohida to'xtalib o'tish kerak. Agar xromatik ranglar tarkibiga axromatik ranglar qo'shilsa, ularning tiniqligi pasayadi. Natijada rangning to'yinganligi o'zgarib,boshqa rang tusi hosil bo'ladi. Kul rang qanchalik ko'p qo'shilsa, xromatik rang shunchalik axromatik bo'lgan kul rangga yaqinlashib boradi. Bu xildagi yorug'lik kuchlarini kamaytirish natijasida ranglarning tiniqligini yo'qotish hamda xira ko'rinishdagi ranglar olish mumkin. Rang tuslarini bir-birlaridan farq qilishni o'rgatishda bir rangning har-xil tuslari orqali naqsh kompozisiyasini ishslash kerak.

Akvarel bilan ishslash malakalarini oshirishda asosiy va qo'shimcha ranglar ustida ishslash muhim ahamiyat kasb etadi. Rang ustida ishslash usullari ikki qismga: asosiy ranglar va qo'shimcha ranglarga bo'lib o'rganiladi. Olingan rang tuslari esa o'zaro solishtirish yo'li bilan aniqlanadi.

Qo'shib topiladigan ranglar aralashtirish yo'li bilan hosil qilinadi. Buning uchun dastlabki mashqlarni nabordagi tayyor bo'yoqlarni qo'shib topishdan boshlash lozim. Bunga quyidagi jadvalda ba'zi bir misollar keltiramiz. Asosiy hamda qo'shib topiladigan ranglar ustida mashq qilinayotgan paytda naturaga yaqin bo'lgan rang tuslarini topish kerak. Bundan tashqari, pardozlangan siliq sirtlarga, oynaga, metall shartlari atrofdagi buyumlarning tasvirlari tushadi va ularning ranglari ham boshqacharoq ko'rinishda bo'ladi.

Ranglarning bu xususiyatlari refleks taassurotini paydo qiladi hamda ishlanayotgan naturaning eng muhim qismini tashkil etadi. Akvarel va mo'yqalamlar bilan ishslashni o'rganishda dastlabki mashqlar muhim rol o'ynaydi.

1.3 Guash bo'yog'ida ishlashning yo'llari

Guash bo'yog'i akvarel bo'yog'ining tamoman aksi bo'lib, u kabi tiniq, jarangdor tus bermaydi. Ranglari yorug'likni yutganligi sababli uning tagidagi qog'oz ko'rilib, sezilib turmaydi. Tarkibi esa akvarelniki singari – bo'yoq kukuni va uni bog'lovchi moddalardan iborat. Ammo ular maxsus yog'och yelimi bilan mtadil nisbatlarda aralashtirilgan bo'ladi. Guash bo'yog'ining yana bir muhim jihatining oq bo'yoq bilan aralashtirib ishlatilishidir. Shuning uchun uning ranglari unchalik jarangdorlik kasb etmaydi. Bo'yoqni ishlatish uchun mo'yqalamlar ham maxsus tanlanib olinadi va ular juda yumshoq bo'lmasligi, bir oz dag'alroq bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Tasvir ishlanadigan sath, ya'ni qog'oz yoki karton ham silliq bo'limgani yaxshi. Uning yuzasi iloji boricha yelimli qoplama (grunt) bilan ishlov berilgan bo'lishi zarur. Shunda uning sathiga guash bo'yog'ini yaxshi surtish mumkin bo'ladi. Guash ko'pincha grafik ishlarni, bezaklarni, plakatlarni ishlashda va qisman rang-tasvirlarni bajarishda foydalaniladigan , suv qo'shib ishlatiladigan, tez quriydigan bo'yoqdir. U bilan tasvirlar bajarishning murakkabligi shundaki, bo'yoq surtilgan paytda to'q, qurigandan keyin esa ochlashib ko'rinishidir. Shu jihatini hisobga olib turilmasa, ranglar orasidagi muvofiqlikni ushlab turish ancha qiyin kechadi. Buning uchun odatda har bir surtiladigan asosiy ranglar alohida-alohida maxsus idishchalarda tayyorlanib olinib, so'ng unga bir oz boshqa qo'shimchalar aralashtirib tasvir ishlanadi. Ranglarni ishlatishda, uning to'q-ochligi, rang tuslarining qanday topilganini doimo tekshirib, bilib turish uchun bir bo'lak qog'ozga tayyorlangan aralashmani surtib aniqlab, so'ng qo'llansa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Guash bo'yog'ida juda ko'p o'tmish rassomlari ham asarlar yaratganliklari ma'lum. Ularning ajoyib-ajoyib natyurmort, manzara, teatr bezaklari, portret, plakatlari jahon tasviri san'ati xazinasidan o'rin olgan. Ammo shunisi borki, bu nozik, saqlanishi ancha qiyin bo'lgan ishlarning ayrimlari, ayniqsa quyuq qilib ishlanganlarining bo'yoqlari o'chib, to'kilib ta'mir talab bo'lib qolganligi sir emas. Guash bo'yog'ida tasvirlarni bajarganda iloji boricha har bir rang tusi uchun alohida-alohida mo'yqalam tutgan ma'qul. Shunda ranglarni tiniq

va toza, jozibali chiqishiga erishiladi. Mo'yqalamlarning turli o'lchamlardagisi va yumaloq hamda yapaloq ko'rinishdagaridan foydalaniladi. Ayniqsa, yapaloq mo'yqalam bezak ishlarida hamda tezkor ranglavhalarni ishlashda juda qulaydir. Guash bo'yog'ida ranglavha va ayniqsa portretlar hamda odam tana qismlarini tasvirlash, nozik rang tovlanishlarini berish qiyin ishdir. Buning uchun ancha muncha mahorat, bilim, tajriba kerak bo'ladi. Tasvir ishlashning yo'l-yo'rig'i, usullarini puxta egallash esa ko'p amaliy mashg'ulotlarni talab etadigan jarayondir.

Katta-katta monumental asarlarning eskizlari hamda kompozisiya losihalarini, bayram munosabati bilan tayyorlanadigan suratlarni ham guashda bajarish qulaydir. U bilan keng qamrovli, mahobatli tasvirlar tez ishlanadi.

Rangtasvir ustalarining asarlarini kuzatar ekanmiz, ularning har biri texnologiyasi hamda uslubi jihatidan naqadar rang-barang ekanligini ko'ramiz va rassomlar mahoratiga tan beramiz. Chunki ijodkorlar bo'yoqning tasvir imkoniyatlarini ustalik bilan qo'llaganlar. Asarlarning biri quyuq bo'yoq qatlamidan foydalanib ishlangan bo'lsa, boshqasi esa juda nozik, yupqa qatlamda bajarilgan. Shunday asarlar ham borki, ular murakkab aralash texnikada bajarilgan. Ya'ni ham akvarel, ham guash texnalogiyasi ustalik bilan qo'llangan. Bunday mahoratli ishlangan asarlar qatoriga rus rassomlari V. Serov, K. Yuon, V. Kustodiyevlarning ijod namunalarini qo'shishimiz mumkin. Shunisi ham qiziqarlik, ayrim rassomlar akvarel bo'yog'ida yaratgan asarlarida guashning faqat oqini ishlatganlar va bu yaxshi samara bergenligi ko'rinish turadi. Bunday asarlarga S. Gerasimov ijodiga mansub ishlarni misol qilib ko'rsatishimiz mumkin.

Guash bo'yog'inining keyingi paytda yangi kashf etilgan turi ham mavjud bo'lib, uning nomi «fluorescentli guash» deb ataladi. Uning ijobiyligi tomoni sun'iy nur tushirilganda yorqinlik kasb etib, «yal-yal» yonib ko'rinishidir. Chunki uning ximiyaviy asoslari ultrabinafsha, binafsha, ko'k, yashil nurlardan g'ayrioddiy yorqin va tabiatdagidan ikki-uch marta kuchli rangda tovlanib ko'rinaldi. Shu sababdan bunday bo'yoq turi teatr bezakchiligidagi keng qo'llanmoqda. Uning ta'sirchan yarqirab ko'rinishi uchun odatda kvarts lampalarni nuridan ham foydalanish bo'lmoqda.

O'quv-mashq ishlarni bajarishda, ayniqsa natyurmortlarni ishlashda guash bo'yog'idan foydalanish juda ham qo'l keladi. Uni moybo'yoq tasvirlar ishlashdan avval o'rganilsa maqsadga muvofiq keladi. Shuningdek, turli kompozisiyalarning eskitilarini o'quv-mashq namunalarini guash texnikasida bajarish qulaydir. U bilan katta-katta sathlarni yaxlit qilib bo'yash, tez ishslash mumkin.

Qalamtasvir yoki rangtasvir asarining kompozisiyasi «struktura» siga aloqador tushuncha mohiyatini qisqacha tarzda ko'rib chiqaylik. Buning uchun kompozisiyaning son bog'liqligi munosabatlarini birma-bir keltirib o'taylik: bu chizilayotgan narsaning absolyut o'lchamining uning asliga nisbati, chizilayotgan o'lcham tomonlarining o'zaro nisbatlari, predmetlarning masshtabi, ular orasidagi masofalar, narsalarning qanday burilib turganligi, ufq sathi darajasi, yorug'lik manbaining holati, soya-yorug'ning taqsimlanishi, tusi, soya va yorug'ning nisbiy muvozanati, shuningdek asosiy rang dog'lari muvozanati, tasvirlanayotgan ob'yektlar bo'laklarining o'zaro joylashishi, qiyofalar va fonga nisbatan «kontrast»lar farqi (rang, soya-yorug', o'lcham) kompozisiya unsurlarining fazodagi ko'rinishini tashkil qilish (metr, ritm) va boshqalar.

Yuqorida keltirib o'tilganlarning barchasi predmetlarning sondagi belgilaridir. Ularni o'lchash va sanab ko'rsatish mumkin. Kompozisiyada qancha narsa ishtirok etayotganini aniqlash imkoniyati aniq. Shunday qilib ko'rish orqali qabul qilish mumkin bo'lgan belgilarni kompozisiyaning vositalari deb atashimiz mumkin. Bu asosda esa rassom ularning bevosita yordamida o'z fikrini ifodalash imkoniyatiga ega bo'ladi. Xuddi musiqa yaratayotgan kompozitor notalardan foydalangani singari rassom ham yuqorida sanab o'tilgan vositalardan foydalanib, o'z asari g'oyasini yuzaga chiqaradi, tasvirlarda ko'rsatib beradi. Sondagi kompozisiya sifatini ta'minlovchi, fikrni to'liq ifoda etishga xizmat qiluvchi belgilarni jamlovchi holat mazmunikompozisiya tamoyillari deyiladi. Ular: yaxlitlik, mutanosiblik, o'lchamlar muvofiqligi muvozanat, birlik va uzviylik dir. bular orqali rassom ishning sifat darajasini ta'minlaydi. Natijada asar kompozisiyasi yuzaki emas, balki chuqr ma'no kasb etadi, tafakkurlash natijasida tushuniladi. Rassom kompozisiya tamoyillarini ustalik bilan qo'llab, har

tomonlamayutuqqa erishadi, kompozisiya bekamu-ko'st bo'ladi. Ma'lumki, kompozisiya tamoyillari uch xil ko'rinishda namoyon bo'ladi. Ular quyidagicha: frontal, hajm-fazoviy va chuqurlik-fazoviy kabilardan iborat. Bulardan birinchisining belgisi – kompozisiyaning ikkita koordinat orqali (vertikal va gorizontal) riaojlanishini bildiradi.

Unda uchinchi koordinat chuqurlik qolgan ikkisiga bo'ysungan holatda ishtirok etadi. Bunday kompozisiya amaliy – bezak kompozisiyalarida ko'p qo'llaniladi, hajm-fazoviy kompozisiyalarida esa shakllar uch o'lchamli holatlarda yaratiladi. Ular har tomondan turib, aylanib ko'rishga mo'ljallangan bo'lib, haykaltaroshlikda qo'llanadi. Chuqurlik-fazoviy kompozisiya predmetlarni kartina teksligida tasvir etishda qo'llanadi va dastgohli rangtasvirda foydalaniladi.

Tarixdan ma'lumki o'tmishning ulug' rassomlari kompozisiya masalalariga juda jiddiy yondoshganlar va o'z asarlarini yaratishda umumqoida bo'lib qolgan tamoyillarga amal qilganlar. Kompozisiyaning «vertikal», «gorizontal», «doiraviy», «kvadrat», «burchak» va boshqa ko'rinishlarini qo'llab, yuksak natijalarga, go'zal ifodaviylikka erishganlar. «Oltin kesim» kompozisiya usulidan unumli foydalanish har sohada qo'l kelgani ham ma'lum.

Kompozisiya tuzishga mohir bo'lgan va uni o'z asarlarida mukammal darajaga olib kelgan mo'yqalam ustalari ko'p, ularga misol qilib quyidagilarni qisman atab o'tsak o'rinali bo'ladi. Bunday o'tmish tasviriy san'ati ustalari: Leonardo da Vinchi. Mikelanjelo, A. Dyurer, J. D. Engr, P. Rubins, Rafael, Tintoretto, A. Ivanov, K. Bryullov, I.YE. Repin, YA. Mateyko va boshqalardir.

O'zbek rassomlaridan tasviriy san'atning turli tur va janrlarida ijod qilgan va hozirgi paytda ajoyib asarlar yaratib kelayotgan musavvirlardan nomlarini ko'rsatib o'tishimiz mumkin. U. Tansiqboyev, I. Ikromov, Z. Inag'omov, CH. Axmarov, X. Husniddinxo'jayev, A. Abdullayev, R. Axmedov, R. Choriyev, I. Jabborov, A. Boymatov, J. Umarbekov, SH. Abdurashidov, A. Mirzayev, S. Abdullayev, A. Ikromjonov, B. Jalolov, A. Nuritdinov, O. G'oziyev va boshqa ko'plab ijodkorlarni bemalol kompozisiya ustalari deb atashimiz, ularning

asarlarini ijobiyligi jihatlarini tahlil qilib, ibrat olishimiz mumkin, bu albatta o'quv-mashqlarni bajarishda nazariy asos vazifasini o'taydi.

Rangtasvir mashg'ulotlariga tayyorgarlik

Ishni boshlashdan oldin albatta yosh rassomlar natura bilan obdon tanishadilar va o'zlariga yoqadigan joy tanlab, vazifani bajarishga kirishadilar, o'zlarini ishga tayyorlaydilar. Qo'yilgan vazifalarni bajarish uchun ulardan yaxshi kayfiyat bo'lishi bilan birga shu vazifani uddalay olishga qattiq kirishish kerakligi tushunchasi ham bo'lishi darkor. Ishga sovuqqonlik bilan qarash yaxshi natija bermaydi.

Chizuvchi yangi ishni boshlashdan oldin shu natura haqida kengroq tushuncha olmog'i, uning tarixi, badiiyligi, konstruktiv tuzilishi, yaxlitligi haqida fikr yuritmog'i, bundan tashqari naturani bir nechta ko'rinishda ishlangan namunasi bilan tanishmog'i kerak. Ishga kirishishdan avval natyurmort haqida keng va bat afsil tushuncha olib o'zlarini uchun mustaqil ish rejasini yaratadilar.

Natyurmortning chiziqli tasviri. Natyurmort postanovkasini maqsadga muvofiq o'rnatib olgandan so'ng, uni metodik izchillilikda tasvirlashga o'tiladi.

Qo'yilgan natyurmortning asosiy g'oyasini surat tekisligida tasvirlab berish uchun, ya'ni natura bilan tasvir o'rtasida to'la o'xshashlikka erishish uchun tasviriy san'atning ifoda vositalari bo'lgan kompozisiya, perespektiva, yorug'-soya va rangshunoslik nazariyalarini puxta bilish va ularni amalda qo'llay olish talab qilinadi. Alovida narsalarni asliga qarab tasvirlash vaqtida bilim va ko'nikmalar hosil bo'ladi. Lekin natyurmort ishlashda vazifalar ancha murakkablashadi. Endi vazifa bitta narsani emas, bir necha narsani o'zaro bog'lanishida qismlarni bir-biriga mos bo'lgan yaxlit tasvirlab ko'rsatishdan iborat bo'ladi. Shuning uchun amaliy ishning ketma-ket bosqichlar bilan olib borish maqsadga muvofiqdir.

Avvalo, qo'yilgan natyurmortni diqqat bilan kuzatib, uni tahlil qilib olinadi. Kompozisiyani ijodiy masalalari, asosan postanovka (natyurmort tuzish) qo'yish vaqtida hal etilgan bo'ladi ya'ni natyurmort qismlari o'rtasida uzviy bog'lanish bo'lib, hamma narsa birgalikda, yaxlit bo'lib ko'zga yaqqol tashlanib turmog'i

lozim. Lekin unga har xil nuqtalardan qaraganda umumiy ko'rinishi ham, qismlarning o'lchamlari va nisbatlari ham o'zgarib boshqacharoq ko'riniq qolganini sezamiz. Demak, natyurmort tasvirining ta'sirchan bo'lishi va undan ko'zlangan maqsadga to'la erishish uchun qo'yilgan natyurmortga nisbatan eng qulay va qiziqarli ko'rish nuqtasini topish kerak. Buning uchun har hil joyga o'tirib yoki turib, naturaga yaqinlashib yoki uzoqlashib qarab ko'rish kerak bo'ladi. Bunda har gal kuzatuvchi ko'zlarning balandligi o'zgarishi bilan birga ufq chizig'i va ko'rish markazi o'zgarib turadi. Qo'yilgan natyurmortga nisbatan eng yaxshi ko'rish nuqtasini topib, ufq chizig'ini shunga muvofiq belgilab olish muhim ish bo'lib, tasvirning umumiy kompozisiyasi ko'p jixatdan unga bog'liq. Natyurmort tasvirini surat tekisligida to'g'ri joylashtirish bir qator masalalarni hal etishni talab qiladi. Shuning uchun ishni boshlashdan oldin bir necha hajmli xomaki rasm bajarib ko'rish maqsadga muvofiqliqdir.

Chizilgan esklislardan eng muvaffaqiyatlidir chiqqanini tanlab, shu asosda katta orginal tasvir boshlanadi. Endi originalni surat tekisligiga nisbatan qanday kattalikda olinishiga alohida e'tibor berilishi loim, chunki ayrim narsalar tasviri juda kata bo'lib ketib, hamma predmetlar sig'may qolishi mumkin. Yoki narsalar tasvir formatga nisbatan juda kichik bo'lib qolib trofida bo'sh joy qoldirilsa, natyurmortning ma'nodorligi yo'qoladi.

Tasvirni qog'oz yuzasida to'g'ri joylashtirish masalasi hal bo'lgan har qanday tasviri san'at asarining poydevori bo'lgan chiziqli rasmni boshlasa bo'ladi. Qo'yilgan natyurmortning umumiy holati, prinsiplari aniqlangach, qog'oz yuzasida uning umumiy o'lchamlari yengilligi va balandligi yengil-yelpi chiziqlar bilan belgilab chiqiladi. Har bir narsaning umumiy shakli qismlarning nisbiy o'lchamlari va va predmetlarning asoslari orasidagi masofalar ham ohista chiziladi. Bu ishlar qalamni qog'oz yuzasida tez-tez yurg'azib, natyurmort bilan taqqoslab turib bajariladi. Har qaysi predmetning o'zicha shakli, kata-kichikligi, tutgan o'rni aniq bo'lgandan keyin, ularning tuzilishini tahlil qilib, sinchiklab kuzatib, u shakllardagi perspektiv qisqarishlar kuzatiladi. Predmetlarning shaklini tahlil qilish chiziqli

rasm ishlashda g'oyat ma'suliyatlari bosqichdir, chunki u rasm ishlovidan mantiiqiy fikr yuritishni va obrazli tasavvur qilishni talab etadi.

Mashxur rus pedagogi va rassom P.P.Chistyakov: «Rasm solmoq fikr yuritmoq demakdir»-deb bejiz aytmagan. Har bir o'tkazilgan chiziq qandaydir aniq fikrning ifodasi bo'lmg'i lozim. Shunda narsalar shakli, qismlari orasidagi mutanosiblikni, konstruktiv tushunishni osonlashtiradi. Ayrim narsalarning konstruksiyasi deganda uning qismlari orasidagi ichki bog'lanishlarni, tashqi ko'rinishini ifodalovchi sinchini tushunishi kerak.

Predmetlarning surat teksligida joylashtirish vaqtida, albatta ularning asoslarini to'la chizib chiqish kerak. Bu tadbir har qaysi predmetning o'rnini va alohida narsalar o'rtasida qolgan masofani to'g'ri ifodalashga yordam beradi. Shunday qilinganda ba'zi narsalarning «muallaq» bo'lib qolishi yoki bir narsaning ikkinchisiga o'yib kirgandek tuyulib qolishiga yo'l qo'ymaydi. Umuman, hajmdor narsalarning rasmini chizganda, ularni shishadan yasalgan tiniq deb faraz qilib, uning ko'zga yaqqol ko'rinxaydigan jihatlarini ham bilinar-bilinmas chizib chiqish maqsadga muvofiqli. Chiziqlar vositasida hajmlarning chegaralarini belgilash bilan birga ularning shakllarini yanada aniqroq bo'lishiga erishishning yana bir yo'li yirik shtrixlar bilan shaxsiy va tushuvchi soyalarni qoralab olishdir. Bu tadbir narsalarning mutanosibligini yanada ta'kidlash va shakllarini aniqroq tasvirlashga olib keladi.

Natyurmortdagagi narsalarning fazoviylari holati va hajmini realistik tarzda tasvirlash uchun ularning qay holatda turganini aniq chizish bilan bir qatorda perspektiva va yorug'-soya qonunlarini puxta bilish va ularni amalda qo'llash yuzasidan ma'lum ishlar olib borish kerak bo'ladi. Predmetlar shaxsiy va tushuvchi soyalarning chegaralari topilgandan keyin, har bir narsaning yorug' soya, siyrak soyalari birma-bir ranglar yordamida ishlab chiqishga o'tiladi. Har bir narsaning hajmdorligi va materialni haqqoniylari qilib tasvirlash uchun natura bilan tasvirdagi soya, yarim soya va reflekslarning nisbiy munosibligiga erishishga harakat qilish kerak. Buning uchun esa natyurmortdagagi eng to'q soya yorug' yerlarni aniqlab olib ana shu eng to'q soyadan boshlash lozim. Ana shu paytda natyurmort rangiga xos

umumiylar och to'qlikni to'g'ri aniqlash g'oyatda muhim. Buning uchun natyurmort yoniga bironta qop-qora narsa qo'yib qaralsa, eng quyuq soya ham unga nisbatan oqishroq bo'lib ko'rindi. Agar shu narsa natyurmort tarkibida bo'lganda, qoralashni o'shandan boshlash va qora qalamni bor imkoniyatidan foydalanish lozim bo'ladi. Natyurmortdag'i hech bir narsa qoraligi baxmalga teng kelmasligini hisobga olib, soyalarni bir oz kuchsizroq tonlarda berishimiz kerak. Xudi shu yo'l bilan natyurmortdag'i eng yorug' yerning och-to'qligi darajasini aniqlasa bo'ladi. Endi natyurmort yoniga aniq narsa, oq qog'oz parchasi yoki bir bo'lak bo'r qo'yilsa bas, natyurmortdag'i eng yorug' dog'ni ham taqqoslash imkoniyati tug'iladi. Alovida peredmetlarning yorug' va soya yerkarni taqqoslash vaqtida albatta, ularni fonga nisbatan qanaqa ko'rini turganini aniqlash zarur. Odatda, peredmetning soya tomonidagi fon ochroq, yorug' tomonidagi esa, aksincha to'qroq ko'rindi. Bu yorug'lik kontrasti bo'lib, rasm chizilganda uni albatta hisobga olish kerak. Predmetning yorug' tomonidagi to'qroq, soya tomoni ochroq qilib tasvirlash, natyurmortdag'i yorug' va soyalar qarama-qarshilagini yaqqol ko'rsatishga yordam beradi. Narsalardagi soya, yarim soya, refleksning har birini och-to'qlik darajasiga monand qator o'ziga xos ranglar bilan ranglar chiqish, chiziqlarning va aynan shu narsaning shakliga monand ranglar yo'nalishni topishga harakat qilish kerak. Masalan: silindirsimon idishning hajmdorligini ifodalash vaqtida soya va yarim soyalarni pala-partish chizib tashlansa, uning silliq yumaloq sirtini aniq ko'rsatib bo'lmaydi.

Yumaloq sirtning har bir bo'lakchasi yorug'dan – soyaga o'tishda asta – sekin ranglari to'qlashib boradi. Lekin eng qo'yuq soya peredmetning chekkasida bo'lmay, markaz tomonga bir oz surilgan bo'ladi, chunki eng chekkada uning yonidagi narsadan yoki tekislikdan aks etgan nurlar, tekslikda aks etgan nurlari bilan yoritilgan joy refleks bo'ladi. Narsaning yorug' qismi o'rtasida dog' ko'rindi. Bu blikdir. Sirtlarni silliq shisha, metal buyumlarida blik yaltirab turadi. Hamma narsaning hajmdor shakliga diqqat bilan ishlov berilgach, natyurmort ishlashning oxirgi bosqichiga o'tiladi. Natyurmortning rangda tasvirlash jarayoni quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi.

Qo'yilgan natyurmortni sinchiklab tahlil qilish;

1. Surat tekisligida tasvirni joylashtirish;
2. Har bir peredmet o'lchamini perspektiva qoidalari asosida taqqoslab belgilash.
3. Narsalarning hajmdorligini yorug' va soyalarini rang fazoviy perspektivasi orqali ifodalab berish. Tasvirdagi yorug' soya reflekslarni ranglar nisbatini topib, ularni natura bilan munosabatini ifodalash;
4. Rasmni umumlashtirish, ortiqcha joylarini yo'qotib ton nisbatlarini tekshirish, kompozisiya markazini ranglar yordamida bo'rttirib ko'rsatish.

Hajmga ega bo'lмаган предметлар.

- a) to'g'ri to'rtburchak shaklidagi predmetlar: daftar, papka, kitob va b.
- b) kvadrat shaklidagi predmetlar: dastro'mol, shaxmat doskasi,b.
- v) uchburchak shaklidagi predmetlar: chizg'ich, bolalar bayroqchasi,b.
- g) aylana, doira, shar shaklidagi predmetlar: lagan, g'ildirak, childirma va b.
- d) tabiat mahsulotlari: daraxt barglari, gullari.
- ye) aralash shakldagi narsalar: o'yinchoq, baliq, bolg'a, belkurak, arra va b.

Hajmli предметлар.

- a) geometrik shakllar: kub, silindr, konus va b.
- b) geometrik shakldagi predmetlar: chelak, qozon va b.
- v) tabiat mahsulotlari: qovun, tarvuz va b.
- g) aralash shakldagi predmetlar: obdasta, vaza va b.

Natural ko'rgazmali qurollar sifatida shartli ravishda hajmsiz deb qabul qilingan yupqa, shuningdek hajmli silindr, konus, shar shaklidagi predmetlar kiritiladi.

Tasviriy ko'rgazmali qurollar sifatida esa natyurmort asarlarining reproduksiyalari, tablisalari, fotografiyalari, deopozitivlardan keng foydalanish mumkin.

Natyurmort ishlash jarayonida chizuvchilar narsalarni shakli, tuzilishi, rangi va shu kabi xususiyatlarini bir-biridan farqi va o'xshash tomonlarini solishtirish orqali aniqlashni o'rganadilar.

Shuningdek, narsaning qaysi geometrik shakliga xos ekanligini aniqlagan holda ularni perspektiv jihatdan tasvirlash yuzasidan bilim va malakalar hosil qiladilar.

Bu mashg'ulotlarning kishilar uchun eng zarur xususiyatlaridan biri xotirani mustahkamlaydi. Narsaga qarab rasm chizishda fazoviy tasavvur va tafakkur o'stiriladi.

Narsaning o'ziga qarab rasmini chizish malakalarini hosil qilish ikki bosqichda oshiriladi. Bular:

1. Shakli va tuzilishi murakkab bo'lмаган yakka narsalarni o'ziga rasmini chizish. Bunday narsalarni o'ziga qarab rasmini chizishda ularning hajmini va perspektiv qisqarishini maqsad qilib qo'yilmaydi.

2. Shakli va tuzilishi murakkabroq bo'lган narsalarning to'plamini o'ziga qarab rasmini chizish. Bunda narsalarni hajmini perspektiv qisqarishda tasvirlash shart qilib qo'yiladi. Natyurmort tuzish uchun xalq amaliy san'ati buyumlari, idishlar, meva va sabzavotlar va x.k. ham tavsiya etiladi.

Chizish uchun natura predmetlar tanlashda predmetlarni tashqi ko'rinishi haddan tashqari bezakdor bo'lmasligi kerak. Ortiqcha bezak naturadagi yorug' soyalarни idrok etishni qiyinlashtiradi.

Orqa fon uchun tanlangan matolar gulsiz, silliq yuzali bo'lgani maqsadga muvofiqdir.

Akvarelda rangtasvir ishlash bosqichlari.

Rasm chizishni boshlashdan oldin ishni reja asosida bo'limlarga ajratilgan holda, bosqichma-bosqich bajarish kerak.

Ishni bir-biriga bog'liq bo'lgan quyidagi bosqichlardan olib boriladi:

1. Rasmning kompozision yechimi.
2. Rasmni qurish.
3. Rasmga shakl berish usuli.

Ishni yuqoridagi bosqichlar asosida olib boriladi. Har bir bosqichda ishni alohida tugatib, boshqasiga o'tish mumkin. Chunki, har bir bosqich o'zicha alohida vazifani ado etadi. Rasm chizish davomida ishdagi xato-kamchiliklarni to'g'rilib borish kerak. Shundan so'nggina ishni oxirigacha olib borish, aniqlik kiritish oldingi holatlarni tuzatish talab qilinadi.

Har bir rassomning uzoq yillar ijod qilishi natijasida uning ijodida o'ziga xoslik yoki o'zini ijodiy uslubi paydo bo'ladi.

Endi yosh talabalarga kelsak, ularning kompozisiya haqidagi bilimlarini har bir mashg'ulotda boyitib boradi. Kompozisiyaning qoidalari, simmetriya, assimmetriya bilan tanishish talabalar uchun kelgusi ijod ishlarida juda zarurdir. Masalan, rasm tasvir tekisligining o'rtasida bo'lsa, bu badiiylikdan uzoqlashgan hisoblanadi. Shuning uchun har bir chizuvchi rasm kompozisiyani to'g'ri farqlab, kompozision talablarga to'la-tekis javob beradigan darajaga yetishish kerak.

Bu degani:

- 1.Tasvir tekisligidan shunday foydalanish kerakki, undagi rasm juda yirik va mayda bo'lib qolmasin;
- 2.Kompozisiyani bo'linib qolishidan saqlash, ya'ni tekislik yuzasidagi tasvir ikki yoki uchga bo'linib ketmasin;
- 3.Kompozisiyani shunday qurish kerakki, undan biror qismini olish yoki biror qismini qo'yish mumkin bo'lmasin;
- 4.Kompozisiya markazini topish-bu kompozisiyaning ma'nosi va xarakterini belgilaydi.

Rasm chizishga qo'yiladigan talablardan biri, kompozisiya qoidalariiga mos tushadigan qoida: irodalilik, yaxlitlilik, haqiqiylik, ma'nolilikdir. Rasmni qog'oz betiga joylashtirishning bir necha xarakterli va zaruriy usullari bor.

Shulardan birini ko'ramiz:

1-usul. «Darcha» usuli. Bir parcha qog'oz olib, uning o'rta qismida to'rtburchak shaklida darcha ochiladi. Shu ochilgan teshikning shakli rasmga mo'ljallangan qog'ozni shakliga o'xshash bo'lishi kerak. Shu darcha orqali naturaga qaraymiz

2-usul. «Rom» usuli. Bunda talaba qo'yilgan naturani yaxshilab o'rganib oladi. Har tomondan qaraydi va rasm uchun mo'ljallangan qog'ozni yuqori qismiga shu naturaning kichraytirilgan kompozisiyasini chizadi, lekin ish yuzasidan izlanishda davom etadi va nihoyat eng ma'qul kompozisiya yechimi topilgach, uni rom bilan o'raydi.

3-usul. «Universal» usul. U yerda talaba «Darcha» yoki «Rom» usulini qo'llamasdan ish to'g'ridan-to'g'ri katta qog'ozga ko'zda chamarlab kompozisiyani chizish va naturani yaxlitlik holatini yo'qotmasdan ishni kompozisiya yechimini topishdagi bosqich bilan yakunlaydi.

Rangtasvir ishiga qo'yiladigan talablar.

Rang bilan ishlangan natyurmortga quyidagi talablar qo'yiladi:

- tasvir qog'oz yuzasiga to'g'ri joylashtirilganligi;
- tasvirlangan buyumlarning o'zaro nisbatlari to'g'ri olinganligi;
- chiziqli tasvir to'g'ri topilganligi;
- buyumlarning naturadagidek ochlik-to'qlig nisbatlari ranglar yordamida to'g'ri ifoda etilganligi;
- tasvirdagi soya va yorug'lik nisbatlarining och-to'qligi to'g'ri ifoda etilganligi;
- tasvirdagi ranglarning soya va yorug'lik ranglar nisbatlari yorug'lik kuchiga mos tasvir etilganligi;
- natyurmortdagи buyumlarning lokal rang to'qligi to'g'ri topilganligi;
- natyurmortdagи har bir buyumning materialiga mos ranglar yo'nalishi tanlanganligi;
- har bir buyumning hajmi ifoda etilganligi;
- naturaga qo'yilgan buyumlar o'rtasida rang perspektivasi masofa erkin ifodalanganligi;
- akvarelda ishlash texnologiyasidan unumli foydalanganligi;
- natyurmortda ishtirok etayotgan ranglarning eng yorug' va eng to'q joy berilganligi;
- umumiyl yaxlitlik topilganligi;

- soya yorug', aks shu'la, yarim soya, blik va tushuvchi soyani rang vositalarida mohirona tasvirlanganligi;
- ichki qismi to'liq va bo'sh bo'lgan buyumlarni farqli tasvirlanganligi;
- barcha buyumlarning o'z predmet tekisligiga to'g'ri joylashtirilganligi;
- aylanasimon buyumlarni umumiy simmetrik qurilishini ta'minlanganligi.

Natyurmortni umumiy holda tahlil etishda, avvalo, qo'yilgan natyurmort, so'ng tasvir baholanadi. Tasvirlangan barcha elementlar yaxlitlikka bo'ysundirilganmi, kompozision umumiyligidan ajrab qolmaganmi, o'zining o'rnini topganmi, natyurmortning umumiy yorug' toni buzilmaganmi? Bu savollar eng oxirgi bosqichda beriladi.

So'zsizki, barcha kartina va polotnolarda chiziqli yechim topib olingandan so'ng, bo'yoqlar bilan ishlashga o'tiladi. Natyurmort elementlari orasidagi ranglar uyg'unligi ochlik-to'qlik nisbatlarini to'g'ri aniqlab olish maqsadida «alla-prima» usulida yoki oqizib ishslash yoki turli yengil mazoklar bilan to'liq nisbatidagi farqliknini tasvirlab olish usulidan ham foydalaniladi. Bu yerda ham yuqorida aytib o'tilgan oxirgi bosqich bilan ish tugallanadi. Natyurmortlar xoh qalamda, xoh rangda ishlansa ham avvalo muvaffaqiyatli tasvirlay olish ko'nikmasini tarkib topishiga yordam beradi. Rang tusi ranglarning to'lqin uzunligiga qarab belgilanadi. Rangning bu xossasiga ko'ra biz ko'z orqali qizil, sariq, zangori va boshqa spektral ranglarni ko'ramiz hamda idrok kilamiz. Lekin rang tuslari ularga qo'yiladigan rang nomlariga qaraganda ancha ko'pdir. Agar biror rangga tusining to'lqinlar uzunligi o'zgarmaydi. Chunki oq rang qo'shilganda faqatgina rang yorqinligi o'zgaradi va qaytarish kaeffisenti bilan ifodalanadi. Yorqinlikni aniq o'lcham uchun fotometr degan asbobdan foydalaniladi. Rang tuslari spektor ranglariga kanchalik yaqinlashsa, ularning yorqinligi shunchalik yaxshi buladi.

II-Bob.

Rang tasvirda ishlashda moybo'yoqdan foydalanish.

2.1 Moybo'yoqda tasvirlarni ishlashning o'ziga xos tomonlari

Moybo'yoqda tasvirlarni ishlash rassom uchun ham, endi o'rganayotgan talaba uchun ham juda qiziqarli mashg'ulotdir. Ammo bu mashg'ulotning jiddiy qiyinchiliklari ham mavjud bo'lib, u moybo'yoq rangtasvir texnologiyasi bilan ham bog'liq. Chunki moybo'yoq bilan ishlash ma'lum tayyorgarlikni talab etadi. Ularga bo'yoqlarni tanlash, ish uchun sath (mato)ni tortib tayyorlash, uni qoplama (grunt) bilan yopish, mo'yialamlarni tanlash, eritgichlarni tanlab olish kabi zarur tadbirlarni kiritish mumkin. Moybo'yoq tasvirlar ishlashni o'rganish natyurmortlarni chizib mashq qilish orqali o'zlashtirilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Moybo'yoqli natyurmort rangtasvirini ishlash jarayonining ayrim tomonlari akvarel texnikasiga o'xshash. Chuki bunda ham avval qalamtasvir chizib olinadi. Agar suvbo'yoqda ishlash uchun tasvir mukammalroq, mayda detallari bilan batafsil chizib olinsa, moybo'yoqda ishlash uchun esa chizmatasvir umumlashtirilib eng asosiy narsalar aks ettiriladi. Buning sababi moybo'yoqda ishlash jarayonida batafsillik mo'yqalamda ishlanishi mumkinligidandir. Moybo'yoqda biror rangni ochlashtirish uchun ungaoq rang kerakli darajada qo'shiladi. Shunisi ham borki oq rang qo'shilgach bo'yoqning erkinligi ma'lum darajada kamayadi. Buni o'quv mashqlarini bajarish jarayonidaalbatta hisobgaolish joiz. Akvarel texnikasi kabi jihatlardan biri ish jarayonini asosiy uzoq muddatli vazifani boshlashdan avval ranglavha, chizmalavhalar ishlab olinishidir. Shunda bo'lajak rangtasvirning asosiy xususiyatlarini tajriba qilib ko'rib o'rganish asosiy ishda uni qo'llash mumkin bo'ladi.

Moybo'yoq tasvirlarini ishlash uchun maxsus ashylardan foydalaniladi. Ular romga tortib tayyorlab, qoplama surtib olingan (gruntlangan) mato, moybo'yoqlarning kerakli xillari, bo'yoqtaxta (politra), mo'yialamlarning turlichalikdagi xillari, mastixin va eritgichlardan iboratdir.

Romga tortilgan mato qanday tayyorlanganligi tasvir sifatini belgilaydigan omillardan biridir desak xato bo'lmaydi. Uning qoplaması (grunti) ikki xil tarzda tayyorlanishi mumkin. Biri moyli qoplama bo'lib u quyidagichadir. 5 foizli elim (jelatin, baliq yoki duradgorlik elimi) aralashmasi shunga teng hajmdagi bo'rga qo'shiladi. U bilan mato sathi qoplanadi. Bir marta surtilgandan so'ng qoplama bo'yoq qatlami tayyorlab olinadi. U quyidagi tarkibda, ya'ni - maxsus oqartirilgan rangtasvir yog'i quruq oq bo'yoq kukunidan qo'shib tayyorlangan aralashma bo'ladi. Yog' va kukunning nisbati shunday bo'lish kerakki u tayyor idishga solib chiiariladigan moybo'yoqdan suyuq bo'lmasin. Shunda uni bemalol mato sathiga mastixin bilan tekis qilib surtib chiqish mumkin bo'ladi. 1-2 xaftha quritilgach G'adir-budir erlari qumqog'oz bilan yaxshilab tekislanadi va skipidar aralashtirilgan moyli qoplama yassi, katta mo'yqalam (fleyts) bilan tekis qilib bo'yab chiqiladi. Bunday usulda tayyorlanadigan mato 2-3 oy mobaynida quritiladi. U saqlanadigan joy iliq va quruq bo'lishi shart.

«Elimli qoplama» deb yuritiladigan qoplamaning ikkinchi xili quyidagicha tayyorlanadi. Suvda 50-60 gr. jelatin eritiladi va unga 15 gr. glitserin qo'shiladi. U matoga 1-2 marta surtiladi. Birinchi marta surtilgani qurigach qumqog'oz bilan mato usti tekislanib olinadi, so'ng ikkinchisi surtiladi. Shundan so'ng elim aralashmasi bo'r vaoq bo'yoq kukuni bilan teng nisbatlarda 40 S darajali issiqda eritiladi. Agar uning tarkibi quyuq bo'lib qolgudek bo'lsa, o'shaelim aralashmasidan qo'shiladi. Bunday qoplama 2-3 marta qavatma-qavat qilib surtiladi. Ular oralig'ida ko'rishi uchun ma'lum vaqt bo'lishi shart.

Qoplamlalar yana ma'lum rang tusida ham tayyorlanishi mumkin. Ular ko'proq ijodiy ishlarni bajarishda va kompozitsiya yaratish jarayonlarida qo'l keladi. Moybo'yoqda o'quv-mashqlarni bajarishda rang xillaridan ham unumli foydalanish talab etiladi. Vazifalarni ishlaganda juda ko'p rang xillaridan bilib-bilmay ishlatish yaxshi samara bermaydi.

Tabiatdaettitaasosiy rang (bo'yoq) borligi ma'lum. Ular qizil, noranji, sariq, yashil, havo rang, ko'k, binafsha ranglardir. Bo'yoq aralashtiriladigan taxtada (politrada) bo'lishi juda zarur rang xillari esa qizil, sariq, ko'k bo'yoqdir. Chunki

ular boshqa qolgan asosiy rang-tuslar vositasidaxosil bo'lmaydi. Bularning aralashmasidan qolgan juda ko'p ranglarni chiqarish, xosil qilish mumkin. Ulardan xatto qora rang tusini ham topish mumkinligi sir emas. Faqat qaysi rangni bir-biriga qancha miqdorda aralashtirishni bilish kifoya. Buning uchun esaalbatta tajriba vao'quv bo'lishi kerak.

Shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki tabiatdaabsolyut oq vaabsolyut qora ranglar mavjud emas. Ularning barchasi qandaydir bir rang tovlanishida bo'ladi. Masalan qoraning jigarrangga, ko'kka, yashilga moyil ekanligini ko'rishimiz mumkin. Oq rangning turli nozik tuslarga moyilligi ham tabiiy. Bunday rang va tuslarning hamda ularning to'q-ochliklarini topib tasvirlash uchun moybo'yoqda ishlash texnikasi juda qulaydir. Shu imkoniyatlarning kengligi bilan u boshqa bo'yoq turlaridan ajralib turadi.

Moybo'yoq texnikasida rangtasvirlar ishlashda mo'yqalamlarning qanday turlari va o'lchamlardagilarini ishlatish ham muhimdir. Ularni tanlay bilish ko'p foyda keltiradi. Ma'lumki natyurmortlarni, katta ishlarni bajarishda yapaloq va dag'al mo'yqalamlarni qo'llash ish sifatini, ta'sirchanligini ta'minlaydi.

Moybo'yoqlarga suyultiruvchi, erituvchi vositalar qo'shib ishlatiladi. Ular moyli, moyi kamaytirilgan bo'lishi mumkin. Moylirog'i bo'yoqni sekin qurishi uchun yaxshi vosita bo'lib, u bilan foydalanilgan paytda rangtasvir sekin quriydi. Shu sababli uzoq muddatda bajariladigan tasvirlarni ishslashda qulaylik yaratadi. Bunday eritgichlarga ba'zan lak ham aralashtirib ishlatilishi mumkin, shunday qilinganda ishning bo'yoq qatlami tezroq quriydi va bo'yoqning moyi matoga shimilib ketishining oldi olinadi.

Shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, moybo'yoq texnikasida rang qoriladigan maxsus taxtacha (politra)ning yuzasida bo'yoqlarni qanday joylashtirish masalasi ham muhim. Unda bo'yoilar issiq-sovuq ranglargaajratib, shu bilan birga to'q-ochligiga qarab ajratib joylashtirilishi mumkin. Oq bo'yoq odatda o'rtada yoki ranglar qatorining boshlanishida bo'ladi. Agar har safar bir xil joylashtirilsa, rassom shunga o'rganadi va kerakli bo'yoqni darrov topib ishlatish imkoniyati qulay bo'ladi. Moybo'yoqda tasvirlar ishslashning ko'p o'rganilishi kerak bo'lgan

tomonlari bor. Ularning barchasi ko'p mashq qilish orqali o'rganib olish imkonini beradi. Tajriba nazariy vaamaliy tomondan muntazam mashq qilish natijasidaoshadi. Bunda maxsus adabiyotlarni mutoala qilish ham zo'r vositadir.

Moybo`yoqlar uchun moylar va suyultirgichlar

Moybuoyoqlarning asosiy plenka hosil qiluvchi komponenti ba'zi bir o'simliklarning urug`laridan olinuvchi o'simlik moylari hisoblanadi.

Moylar quriganda qanday plenka hosil qilishiga qarab to'rt guruhga bo`linadi.

Birinchi guruhni zig`ir turidagi moylar tashkil etadi. Ular juda tez qurib, mustahkam bo`ladi, organiq eritgichlarda erimaydi. Bu guruhga: zig`ir, kandir moyi va boshqa moylar kiradi.

Ikkinchi guruhni ko`knori turidagi moylar tashkil etadi. Plenka hosil qilish qobiliyati birinchi guruhga nisbatan pastroq, o`zoq vaqtida quriydi. Olingan plenka organiq suyultirgichlarda qisman eriydi, qizdirilsa yumshab, erib ketadi. Bu guruhga kungaboqar, ko`knori, soya va boshqa moylar kiradi.

Uchinchi guruhni zaytun turidagi moylar tashkil etadi. Bu moylar to`liq qurimaydi.

O'simlik moylari yog` kislotalari (94-98 %) ning glitseridlaridan, ozroq miqdordagi to`yingan va tuyinmagan yog` kislotalari (1-2 %), yuvilib ketmaydigan vositalardan (0,5-1 %) va oqsil modda (0,5 %)lardan tashkil topgan.

O'simlik moylarining plenka hosil qilishning asosiy sababi bu ularning tarkibidagi to`yinmagan yog` kislotalarining mavjudligidadir.

Moylarning yog` kislotalari bilan to`yinganlik darajasi, plenka hosil qilish qobiliyatini xarakterlash uning tarkibidagi yod birligi bilan ko`rsatiladi. Moyning yod birligi qancha ko'p bo`lsa, u shuncha tez quriydi.

O'simlik moylarining muhim xususiyatlaridan biri bu uning polimerlash kobiliyatidir.

Polimerlangan moy tez qurish xususiyatiga ega bo`ladi va yaxshi fizik-ximik xususiyatiga ega bo`lgan plenka hosil qiladi.

"Alla prima" rangtasviri

"Alla prima" tushunchasi lotin tilidagi "alla prima vizta" so`zidan olingan bo`lib, "bir qarashda" ma'nosini beradi va pastasimon bo`yoq bilan qisqa vaqtida ishlashni bildiradi. Bunda kartina bir seansdayoq tayyor bo`ladi. Buning uchun rassomning o`ziga ishonchi kuchli va bo`yoqlar bilan ishlashda tajriba bo`lishi kerak. Bo`yoqlar asosan palitrada aralashtiriladi, bunda yorqin va toza ranglarni topish mumkin.

Bu plener sharoitida ishlash uchun juda qulay uslub. Bo`yoqlar qattiq mo`yli mo`yqalamlar bilan qo`yiladi. Polotna sifatida ko`pol to`qilgan xolst yoki kartondan ham foydalanish mumkin.

"Alla prima" uslubida tipik kompaktli va relefsimon tarkibni yaratish mumkin. Uni chetlari yoki konturlarini bemalol sidirib olib, tekislash va qo`shib yuborish mumkin. Buning uchun sigir kilidan yasalgan quruq va yumshoq mo`yqalamlardan foydalanish mumkin.

Rang va konturlarning chetlarini shunday qilib yumshoq va yengil kirishib ketuvchi qilish mumkin. Bu usul shuningdek "sfumato" (yowilgan kontur) deb yuritiladi.

Shpatel bilan ishlash texnikasi

Shpatel bilan ishlash texnikasi "alla prima" rangtasvirining bir varianti hisoblanadi. Oldin monoxrom ranglar bilan kartinaning asosiy strukturasi qo`yiladi, keyin esa elastik mastixin yordamida pasta usuli bilan rang qo`yiladi. Oq releflardan farqli ravishda bu yerga bir oz qurigan yuzaga yorug`lik blik qo`yiladi.

Lessirovka va rangtasvirning lessirovka texnikasi

Lessirovka texnikasida ishlash jarayoni juda zerikarli bo`lib, u ko`p vaqt va chidamni talab etadi. Eng avvalo bunda tiniq tasavvur va yaratilajak tasvirning fikriy obrazi juda zarur bo`ladi. Kartina monoxrom usulida ko`riladi. Lessirovka texnikasida ishlangan rangtasvir, xuddi shaffof suvli kulning tubini ko`rgandek asosi va chuqurligigacha ko`rinadi. Ishning birinchi bosqichi tugaganidan so`ng rasm lessirovka bo`yoqlari bilan qoplanadi. Kartinaga keyingi qatlam ranglari, oldingi ranglar hech bo`lmaganda yarmigacha quriganidan so`ng qo`yilishi lozim.

Ko`p qatlamlı rangtasvir

Rangtasvirda eng ko`p tarqalgan usullardan biri bu ko`p qatlamlı rangtasvir hisoblanadi.

Ko`pincha kartinani bir seansdayoq tugatib bo`lmaydi. Kartina eskizga va tugamagan ishga o`xshab qoladi. Rassomda uni qaytadan ishlash istagi paydo bo`ladi. Shunday qilib, ishning bo`lak, turli bosqichlari paydo bo`ladi. Rassom ishni tugatmaydi va uni "ochiq" qoldiradi. Ko`pqatlamlı rangtasvirda yuqorida aytib o`tilgan usul va kombinatsiyalarning barchasi qo`llaniladi.

Aniqroq qilib aytganda, kartinani boshlab, keyin uni tugatdim deyish noto`g`ri bo`ladi. Ko`pqatlamlı rangtasvir texnikasining ish jarayonida juda ko`p yangi usullar paydo bo`lishi mumkin. Bunda xattoqi ishni tugatishga ko`ra ushbu texnikani qo`llashni o`zi ham juda muhim bo`lib qoladi.

Kartina ustida ishslash hamma vaqt "ochiq" bo`lib qolishi va "tugamagan" ish bo`lib tuyulmasligi kerak. Shu nuqtai nazardan qaraganda bajarilgan ishning amaliy tomonlariga emas, balki uning badiiy mezonlariga e'tibor berish lozim.

Moybo`yoq rangtasvirining nuqsonlari va ularni tuzatish

Rangtasvir asarining koloritik imkoniyatlari va kartinaning uzoq vaqt saqlanishi faqatgina ishlatiladigan materiallarning sifatigagina bog`liq emas, balki rangtasvir texnologiyasining to`g`ri tanlanganiga ham bog`liq bo`ladi.

Rangtasvir asarlarida uchrab turadigan nuqsonlar ko`pincha rassomning rangtasvir texnikasini to`g`ri bilmasligidan yoki past sifatli gruntdan ham kelib chiqishi mumkin.

Rassomning kasbiy xatolari turli sabablarga ko`ra yuz beradi. Bo`lar ishni mohiyatini tushunmaslik va eksperiment qilish istagi, shuningdek rassomning shaxsiy xususiyatlariga (kuchli temperamentli) bog`liq bo`lishi mumkin. Shubxasiz harbir rassomda u yoki bu sabablarga ko`ra xatolar paydo bo`ladi.

Quyida biz ish jarayonida eng ko`p yuz beradigan xatolar, ularning kelib chiqish sabablari va ularni oldini olish, zararni tugatish haqida to`xtalib o`tamiz.

2.2 Iliq va sovuq ranglar hamda ularning qo'llanilishi.

Rangtasvirishlashdauningqonun-qoidalarini, usulvatexnologiyasinio'rganishmuhimahamiyatgaegavazifalardandirdesakxatobo'l maydi. Shunday zarur shartlar qatoriga axromatik va xromatik ranglar haqidagi bilimlar ham kirishi tabiiydir.

Ko'zimiz ko'ra oladigan tabiatdagi hamma ranglarni shartli ravishda ikkiga: axromatik va xromatik ranglarga bo'lish mumkin. Oqdan to'q qoragacha bo'lgan ranglar axromatik ranglarga (oq, kul rang, qoramtil, qora, to'q qora) qolganlari esa xromatik (qizil, sariq, ko'k va hokazo) ranglarga kiradi.

Xromatik ranglar o'z navbatida, shartli ravishda yana ikkiga, issiq va sovuq ranglarga bo'linadi. Issiq ranglarga olov, quyosh, qizigan narsalarning rangini eslatuvchi qizil, sariq, zarg'aldoq ranglar kiradi. Muz, havo, suvlarning rangini eslatuvchi ko'k, moviy, binafsha ranglar sovuq ranglarga kiradi. Yashil va binafsha ranglar goh issiq, goh sovuq ranglarga kirishi mumkin. Chunki yashil rang sariq va ko'k ranglarning aralashmasidandir. Binafsha rang esa qizil va ko'k ranglarning aralashmasidan hosil bo'ladi. Ko'rinish turibdiki, Bu ranglar issiq va sovuq ranglarning aralashmasidan hosil bo'lgan. Aralashtirishda issiq rang miqdori sovuq rang miqdoriga nisbatan ko'proq bo'lsa, hosil bo'lgan rang issiq rang qatoriga, sovuq rang miqdori ko'proq bo'lsa, sovuq ranglar qatoriga o'tish mumkin. Xuddi shunday binafsha rangda qizil rang ko'proq bo'lsa issiq, ko'k rang ko'proq bo'lsa, sovuq ranglar qatoriga kiradi. Demak o'quv mashg'ulotida rang-tasvirni ishlashda qo'yilmadagi narsa va buyumlarning yorug'-soya nisbatlari, shuningdek, rang nisbatlarini ham ochib aniq ko'rsatish muhim ahamiyatga ega.

Ranglarning tabiiyliginitasvirda to'g'ri bajarish anchaqiyin ish hisoblanadi. Bungajiddiy mehnat, nozik did va zo'rmushohada orqali erishish mumkin. Ayniqsa natyurmortdagi narsalarning och- to'qlik darajalarini farqlashga, undagi tus birligini tushunishga o'rga nish uchun natyurmortni bitta rangda tasvirlash katta ahamiyatga ega. Bu usulda rasm ishslash keyinchalik qiyin natyurmortlarning rangli tasvirini bajarishga o'tishni ancha osonlashtiradi. Bir rangda yozish usuli «grizayl» deb ataladi.

Grizayl usulida rasm ishlash turli ranglar vositasida ish usuliga o'tish uchun tayyorgarlik bosqichi bo'lib, unda mo'yqalamni ishlatish yo'llari va akvarel bo'yoqlarining xususiyatlarini o'rganish uchun imkoniyat yaratadi. Bu texnika bilan bir nechta natyurmortlarni tasvirlab o'rgangandan so'ng, barcha rang xillari bilan ham natyurmort ishslash ancha oson bo'ladi.

Natyurmortlar ko'pincha xonalarga qo'yib ishlanadi. Ammo ba'zan uni tabiat qo'ynida tashkil qilib tasvirlashga ham to'g'ri keladi. Shunday paytda natyurmortni ishlashdan avval uning rang xususiyatlarini tahlil qilib, tushunib olish muhimdir. Chunki xona ichiga qo'yilgan natyurmortga derazadan tushayotgan nur narsalarning yorug' qismida sovuq ranglarni beradi. Buyumlardan tushayotgan soyalar esa aksincha, iliq, issiq bo'lib ko'rindi. Ochiq havodagi, tashqaridagi chizilayotgan narsalar buning aksidir, ularning soyasi sovuq, yorug' qismi esa iliq bo'lib ko'rinishi mumkin. Ana shunday holatlarni diqqat bilan kuzatib, so'ng e'tibor bilan tasvirlash ish sifatining yaxshi bo'lishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Ma'lumki ranglarni ko'rish va idrok etish qobiliyati asta-sekin mashqlar orqali shakllanadi. Bunda akvarel bo'yoqlar nomlarini aniq bilib olish va ularni o'z o'rnida jo'yali qo'llash muhimdir.

Akvarel bo'yoqlari 24-16 xil rangli to'plamlar holida bo'ladi. Ularni ishga tayyorlash vaqtida har birining ustiga yozib qo'yilgan yorlig'ini asta ko'chirib olib, bo'yoq solingan plastmassa idishchaning tagiga yopishtirib qo'yish va nomlarini eslab qolish kerak. Ular quydagicha tartibda bo'lishi mumkin. Ya'ni: limon rang qadimi, sariq qadimi, och oxra, tabiiy siyena, oltinsimon sariq, zarg'aldoq qadimi, qizil oxra, kuydirilgan siyena, och qizil, guldor, qizil kraplak. Karmin (erkin qizil), binafsha kraplak, ultramarin, ko'k kobalt, havo rang, zumrad yashil, yashil permanent, sabza (yashil), tabiiy umbra (to'q jigar rang), jigar rang mars (och), kuydirilgan umbra (jigar rang), sepiya (chiroyli to'q jigar rang), qora.

Tabaiatdagi narsalarning aniq rangini belgilab ko'rsatadigan tayyor bo'yoqlar mavjud emas. Ammo yetuk rassom ranglarning uzaro ta'siri va ko'rinish holatlarini idrok etib ularning xususiyatlarini hisobga olgan holda har qanday narsani ham aks ettira oladi.. Tasvirda shunday joziba va hayotiy haqiqatga erishish uchun

rassomga ranglar nisbatini bilish, ranglar orasida qandaydir bitta rangning turli xil tovlanishini hisobga olib ishlata olishga yordam berган. Masalan, оlov rang qizilni kuchliroq «yal-yal» yonadigan qilib tasvirlash uchun shu rang atrofidagi narsalarning soyasini ko'kимтиr havo rang, yashil, zangori tuslarda beriladi. Tasvir bilan chizilayotgan narsa, holat o'rtasida to'la o'xshashlik bo'lishi uchun ularning rang nisbatlarida ham o'xshashlik bo'lishi shart. Bunga erishish uchun rangshunoslik fanining asoslarini chuqur o'rganish va amaliy ish jarayonda bu masalalarga qayta-qayta murojaat qilish kerak. Har xil bo'yoqlar bilan (akovarel, guash, moybo'yoq) natyurmortlarni tasvirlash uchu nyuqorida qayd etilgan tajribalarni o'tkazib ko'rish, bo'yoqlarning texnologiyasi xususiyatlarini yaxshi bilish, ularni ishlatish usullarini o'zlashtirish uchun ko'plab mashqlar bajarish tavsiya etiladi.

Guash bo'yog'i akvarel bo'yog'ining tamoman aksi bo'lib, u kabi tiniq, jarangdor tus bermaydi. Ranglari yorug'likni yutganligi sababli uning tagidagi qog'oz ko'rinib, sezilib turmaydi. Tarkibi esa akvarelniki singari – bo'yoq kukuni va uni bog'lovchi moddalardan iborat. Ammo ular maxsus yog'och yelimi bilan mtadil nisbatlarda aralashtirilgan bo'ladi. Guash bo'yog'ining yana bir muhim jihatи uning oq bo'yoq bilan aralashtirib ishlatilishidir. Shuning uchun uning ranglari unchalik jarangdorlik kasb etmaydi. Bo'yoqni ishlatish uchun mo'yqalamlar ham maxsus tanlanib olinadi va ular juda yumshoq bo'lmasligi, bir oz dag'alroq bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Tasvir ishlanadigan sath, ya'ni qog'oz yoki karton ham silliq bo'limgani yaxshi. Uning yuzasi iloji boricha yelimli qoplama (grunt) bilan ishlov berilgan bo'lishi zarur. Shunda uning sathiga guash bo'yog'ini yaxshi surtish mumkin bo'ladi. Guash ko'pincha grafik ishlarni, bezaklarni, plakatlarni ishlashda va qisman rang-tasvirlarni bajarishda foydalaniladigan , suv qo'shib ishlatiladigan, tez quriydigan bo'yoqdir. U bilan tasvirlar bajarishning murakkabligi shundaki, bo'yoq surtilgan paytda to'q, qurigandan keyin esa ochlashib ko'rinishidir. Shu jihatini hisobga olib turilmasa, ranglar orasidagi muvofiqlikni ushlab turish ancha qiyin kechadi. Buning uchun odatda har bir surtiladigan asosiy ranglar alohida-alohida maxsus idishchalarda tayyorlanib olinib, so'ng unga bir oz boshqa

qo'shimchalar aralashtirib tasvir ishlanadi. Ranglarni ishlatishda, uning to'q-ochligi, rang tuslarining qanday topilganini doimo tekshirib, bilib turish uchun bir bo'lak qog'ozga tayyorlangan aralashmani surtib aniqlab, so'ng qo'llansa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Guash bo'yog'ida juda ko'p o'tmish rassomlari ham asarlar yaratganliklari ma'lum. Ularning ajoyib-ajoyib natyurmort, manzara, teatr bezaklari, portret, plakatlari jahon tasviriy san'ati xazinasidan o'rinni olgan. Ammo shunisi borki, bu nozik, saqlanishi ancha qiyin bo'lgan ishlarning ayrimlari, ayniqsa quyuq qilib ishlanganlarining bo'yoqlari o'chib, to'kilib ta'mir talab bo'lib qolganligi sir emas. Guash bo'yog'ida tasvirlarni bajarganda iloji boricha har bir rang tusi uchun alohida-alohida mo'yqalam tutgan ma'qul. Shunda ranglarni tiniq va toza, jozibali chiqishiga erishiladi. Mo'yqalamlarning turli o'lchamlardagisi va yumaloq hamda yapaloq ko'rinishdagaridan foydalilaniladi. Ayniqsa, yapaloq mo'yqalam bezak ishlarida hamda tezkor ranglavhalarni ishlashda juda qulaydir. Guash bo'yog'ida ranglavha va ayniqsa portretlar hamda odam tana qismlarini tasvirlash, nozik rang tovlanishlarini berish qiyin ishdir. Buning uchun ancha muncha mahorat, bilim, tajriba kerak bo'ladi. Tasvir ishlashning yo'l-yo'rig'i, usullarini puxta egallash esa ko'p amaliy mashg'ulotlarni talab etadigan jarayondir.

Katta-katta monumental asarlarning eskizlari hamda kompozisiya losihalarini, bayram munosabati bilan tayyorlanadigan suratlarni ham guashda bajarish qulaydir. U bilan keng qamrovli, mahobatli tasvirlar tez ishlanadi.

Rangtasvir ustalarining asarlarini kuzatar ekanmiz, ularning har biri texnologiyasi hamda uslubi jihatidan naqadar rang-barang ekanligini ko'ramiz va rassomlar mahoratiga tan beramiz. Chunki ijodkorlar bo'yoqning tasvir imkoniyatlarini ustalik bilan qo'llaganlar. Asarlarning biri quyuq bo'yoq qatlamidan foydalaniib ishlangan bo'lsa, boshqasi esa juda nozik, yupqa qatlamda bajarilgan. Shunday asarlar ham borki, ular murakkab aralash texnikada bajarilgan. Ya'ni ham akvarel, ham guash texnologiyasi ustalik bilan qo'llangan. Bunday mahoratli ishlangan asarlar qatoriga rus rassomlari V. Serov, K. Yuon, V. Kustodiyevlarning ijod namunalarini qo'shishimiz mumkin. Shunisi ham

qiziqarlik, ayrim rassomlar akvarel bo'yog'ida yaratgan asarlarida guashning faqat oqini ishlatsanlar va bu yaxshi samara berganligi ko'rinish turadi. Bunday asarlarga S. Gerasimov ijodiga mansub ishlarni misol qilib ko'rsatishimiz mumkin.

Guash bo'yog'inining keyingi paytda yangi kashf etilgan turi ham mavjud bo'lib, uning nomi «fluorescentli guash» deb ataladi. Uning ijobiy tomoni sun'iy nur tushirilganda yorqinlik kasb etib, «yal-yal» yonib ko'rinishidir. Chunki uning ximiya viy asoslari ultrabinafsha, binafsha, ko'k, yashil nurlardan g'ayrioddiy yorqin va tabiatdagidan ikki-uch marta kuchli rangda tovlanib ko'rindi. Shu sababdan bunday bo'yoq turi teatr bezakchiligida keng qo'llanmoqda. Uning ta'sirchan yarqirab ko'rinishi uchun odatda kvars lampalarni nuridan ham foydalanish bo'lmoqda.

2.3 Manzara janrida kompozitsiyasining yaratilishi.

O'quv-mashq ishlarni bajarishda, ayniqsa manzaralarni ishslashda guash bo'yog'idan foydalanish juda ham qo'l keladi. Uni moybo'yoq tasvirlar ishslashdan avval o'rganilsa maqsadga muvofiq keladi. Shuningdek, turli kompozisiyalarning eskizlarini o'quv-mashq namunalarini guash texnikasida bajarish qulaydir. U bilan katta-katta sathlarni yaxlit qilib bo'yash, tez ishslash mumkin.

Qalamtasvir yoki rangtasvir asarining kompozisiyasi «struktura» siga aloqador tushuncha mohiyatini qisqacha tarzda ko'rib chiqaylik. Buning uchun kompozisiyaning son bog'liqligi munosabatlarini birma-bir keltirib o'taylik: bu chizilayotgan narsaning absolyut o'lchamining uning asliga nisbati, chizilayotgan o'lcham tomonlarining o'zaro nisbatlari, predmetlarning masshtabi, ular orasidagi masofalar, narsalarning qanday burilib turganligi, ufq sathi darajasi, yorug'lik manbaining holati, soya-yorug'ning taqsimlanishi, tusi, soya va yorug'ning nisbiy muvozanati, shuningdek asosiy rang dog'lari muvozanati, tasvirlanayotgan ob'yektlar bo'laklarining o'zaro joylashishi, qiyofalar va fonga nisbatan «kontrast»lar farqi (rang, soya-yorug', o'lcham) kompozisiya unsurlarining fazodagi ko'rinishini tashkil qilish (metr, ritm) va boshqalar.

Yuqorida keltirib o'tilganlarning barchasi predmetlarning sondagi belgilaridir. Ularni o'lchash va sanab ko'rsatish mumkin. Kompozisiyada qancha narsa ishtirok etayotganini aniqlash imkoniyati aniq. Shunday qilib ko'rish orqali qabul qilish mumkin bo'lgan belgilarni kompozisiyaning vositalari deb atashimiz mumkin. Bu asosda esa rassom ularning bevosita yordamida o'z fikrini ifodalash imkoniyatiga ega bo'ladi. Xuddi musiqa yaratayotgan kompozitor notalardan foydalangani singari rassom ham yuqorida sanab o'tilgan vositalardan foydalanib, o'z asari g'oyasini yuzaga chiqaradi, tasvirlarda ko'rsatib beradi. Sondagi kompozisiya sifatini ta'minlovchi, fikrni to'liq ifoda etishga xizmat qiluvchi belgilarni jamlovchi holat mazmunikompozisiya tamoyillari deyiladi. Ular: yaxlitlik, mutanosiblik, o'lchamlar muvofiqligi muvozanat, birlik va uzviylik dir. bular orqali rassom ishning sifat darajasini ta'minlaydi. Natijada asar kompozisiyasi yuzaki emas, balki chuqur ma'no kasb etadi, tafakkurlash natijasida tushuniladi. Rassom kompozisiya tamoyillarini ustalik bilan qo'llab, har tomonlamayutuqqa erishadi, kompozisiya bekamu-ko'st bo'ladi. Ma'lumki, kompozisiya tamoyillari uch xil ko'rinishda namoyon bo'ladi. Ular quyidagicha: frontal, hajm-fazoviy va chuqurlik-fazoviy kabilardan iborat. Bulardan birinchisining belgisi – kompozisiyaning ikkita koordinat orqali (vertikal va gorizontal) riaojlanishini bildiradi.

Unda uchinchi koordinat chuqurlik qolgan ikkisiga bo'ysungan holatda ishtirok etadi. Bunday kompozisiya amaliy – bezak kompozisiyalarida ko'p qo'llaniladi, hajm-fazoviy kompozisiyalarida esa shakllar uch o'lchamli holatlarda yaratiladi. Ular har tomondan turib, aylanib ko'rishga mo'ljallangan bo'lib, haykaltaroshlikda qo'llanadi. Chuqurlik-fazoviy kompozisiya predmetlarni kartina teksligida tasvir etishda qo'llanadi va dastgohli rangtasvirda foydalaniladi.

Tarixdan ma'lumki o'tmishning ulug' rassomlari kompozisiya masalalariga juda jiddiy yondoshganlar va o'z asarlarini yaratishda umumqoida bo'lib qolgan tamoyillarga amal qilganlar. Kompozisiyaning «vertikal», «gorizontal», «doiraviy», «kvadrat», «burchak» va boshqa ko'rinishlarini qo'llab, yuksak

natijalarga, go'zal ifodaviylikka erishganlar. «Oltin kesim» kompozisiya usulidan unumli foydalanish har sohada qo'l kelgani ham ma'lum.

Kompozisiya tuzishga mohir bo'lgan va uni o'z asarlarida mukammal darajaga olib kelgan mo'yqalam ustalari ko'p, ularga misol qilib quyidagilarni qisman atab o'tsak o'rinni bo'ladi. Bunday o'tmishtasviriy san'ati ustalari: Leonardo da Vinchi. Mikelanjelo, A. Dyurer, J. D. Engr, P. Rubins, Rafael, Tintoretto, A. Ivanov, K. Bryullov, I.YE. Repin, YA. Mateyko va boshqalardir.

O'zbek rassomlaridan tasviriy san'atning turli tur va janrlarida ijod qilgan va hozirgi paytda ajoyib asarlar yaratib kelayotgan musavvirlardan nomlarini ko'rsatib o'tishimiz mumkin. U. Tansiqboyev, I. Ikromov, Z. Inag'omov, CH. Axmarov, X. Husniddinxo'jayev, A. Abdullayev, R. Axmedov, R. Choriyev, I. Jabborov, A. Boymatov, J. Umarbekov, SH. Abdurashidov, A. Mirzayev, S. Abdullayev, A. Ikromjonov, B. Jalolov, A. Nuritdinov, O. G'oziyev va boshqa ko'plab ijodkorlarni bemalol kompozisiya ustalari deb atashimiz, ularning asarlarini ijobiy jihatlarini tahlil qilib, ibrat olishimiz mumkin, bu albatta o'quvmashqlarni bajarishda nazariy asos vazifasini o'taydi.

Ma'lumki tasviriy san'atni o'rgatish tajribasi, ayniqsa, kompozisiya masalalarini hal etish jarayonida interyer, fazo, atrof-muhit va vaqt faktorlarini to'g'ri ochib berish uning ifodaviyligini ta'minlashda kata ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi.

Ma'lumki, interyer ko'pchilik kompozisiyalarning muhim qismi sifatida foydalilanadi. U ayniqsa, natyurmortlarni ishlashda ko'p qo'llanadi. Keng qamrovli mazmun mohiyatga ega bo'lgan natyurmort kompozisiya asarlarida va shuningdek o'quv mashqlarida ham xona ichi tasvirlanadi. Unda esa albatta kompozisiyaning barcha qonun-qoidalari va amallariga rioya qilinishi taqoza etiladi. Bunda uning chiziqli perspektiva qurilishi, fazoviy holatlari, atrof-muhit ko'rinishi realistik tarzda, metodik izchillikdan bilimdonlik bilan aks ettirilishi lozim. Agar kompozisiyaning biror- bir unsuri e'tiborsiz qoldirilsa, unda umum tasviriy jixatlari bo'sh, ta'sirsiz chiqib qolishi mumkin. Masalan, natyurmort kompozisiyalaridan atrof-muhit, fazo holatlari muhim hisoblanib, ularni ifodali tasvirlash orqali

mavzuni belgilovchi zamonaviylik hamda vaqtini, asar ishlangan paytdagi fasl xususiyatlariga dovr aniq, tiniq ko'rsatib berishi mumkin. Mazmuni chuqUr va qiziqarli chiqishi natyurmort qo'yilib tasviri etilayotgan xona ichi ya'ni interyerning qanday yoritilganligi, undagi buyumlarning qanday joylashganligiga ham bog'liqdir. Chunki ular orqali kompozisiya g'oyasini yanada teranroq ochib berish imkoniyati tug'iladi. O'sha har biri o'zicha muhim bo'lgan narsalar orqali vaqt mezonlarini, davr xususiyatlarini ham to'liq badiiy tarzda ifodalash mumkin. Odam qiyofasini interyerda aks ettiradigan kompozisiyalarda ham vaqt, fazoviy holatlar, atrof-muhit tasviri orqali ko'rsatib beriladi. Chunki ular kompozisiyadagi rangdorlik tus-rang munosabatlarini, ta'sirchanlik va mazmunni belgilovchi komponentlar sifatida yuzaga chiqadi. Ma'lumki o'quv mashqlaridan, kompozisiya chizish jarayonlarida bu muhim omillar aslo unutilmasligi lozim.

Chunki ular kompozisiyaning o'lchamini, tomonlarining rang va to'q - ochlik, demakki, tus munosabatlarini, yaxlitlik va muvozanatlarini belgilab, muallif o'z oldiga qo'ygan g'oyatasvirini yuzaga chiqarishda yordam beradi. Mazmunning tushunarli, lo'nda, qiziqarlichiqishida xizmat qiladi.

Xona ichini kompozisiyaning bir komponenti sifatida tasvirlash ham oson emas. U ko'pincha tasvir etilayotgan voqelikning yordamchi bir foni vazifasini o'tasada, unga muhim bo'lak sifatida yondoshilishi kerak. Masalani, interyerini chiziqli perspektiva holati to'g'ri topilmas ekan kompozisiyaning fazo viy o'lchamlari va ifodaviyligining haqqoniy aks etishi mumkin bo'lmay qoladi. O'z navbatida atrof-muhit ham kompozisiyaning umumiyligi g'oyaviy mazmunini belgilovchi unsurlardan biri hisoblanadi.

Yuqorida keltirib o'tilgan ma'lumotlardan shu narsa ayon bo'ladiki, demak – interyer, fazo, atrof-muhit va vaqt kompozisiyasining mazmunli chiqishida muhim rol o'ynovchi, o'zaro bir-biri bilan bog'liq holda tasvirlanadigan zarur kompozisiyaning faktorlari ekan. Shu sababdan ularning tasviriga katta e'tibor bilan yondashish zarur. Interyerda aks ettiriladigan har turli kompozisiyalarni bajarishdan avval albatta ko'plab yordamchi eskizlar, qoralama-lafha suratlar ishlanishi kerak.

X U L O S A

Xulosa qilib aytganda quyidagilarni ta'kidlab o'tish joiz bo'ladi.

O'quv yurtlaridagi badiiy bezash ishlari haqida fikr yutirilganida ko'rgazmali agetattsiyani tasirchanligini oshirish va shu orqali o'quvchilarga estetik tarbiya ishining muvaffaqiyatini ta'minlash nazarda tutiladi. Shuningdek badiiy bezash ishlari juda katta ta'limiy va badiy – tarbiyaviy ahamiyatga ham molikdir. Lekin bu ishlar hamma o'quv yurtlarida ham yaxshi yo'lga qo'yilgan, deb bo'lmaydi. Buning birinchi sababi yuqorida aytilganidek, mazkur ishlarning qiyinligi va ularni bajarish uchun kerakli bilimlarga ega bo'lgan mutaxassislarning yo'qligidir. Shuning uchun o'quvchilarga sinfdan tashqari tasviriy san'at mashg'ulotlarida badiiy bezash ishlarini o'rgatish va ularning o'zlarini ana shu ishlarga jalb etish zarur.

Ma'lumki umumiyligi ta'lim, litsey, kollej va hunar maktabini isloq qilishning asosiy yo'nalishlardan biri yosh avlodning mehnat tarbiyasini yaxshilashdan iboratdir. O'quvchilar badiy bezash ishlarini bajarish jarayonida o'zlarining badiiy

qobiliyatlarini rivojlantirish bilan bir qatorda juda ko'p ishlab chiqarish - texnik operattsiyalarni ham o'rghanadilar. Materiallarning xossalari haqida anchagina qiziqarli narsalarni bilib oladilar, qog'oz, gazlama, yog'och, metal, va hokazolarni ishlatish texnologiyasi hamda turli asboblardan foydalanish qoidalari bilan tanishadilar.

Eng muhim o'quvchilarni bezash ishlarini to'g'ri va qiziqarli yo'sinda tashkil etish ularni bajarishga o'quvchilarning o'zlarini doimiy ravishda jalg qilish va ularni qunt bilan ishlashga odatlantirishdir. «Bolaga,- degan edi I.G. Pestalotsi - muayyan darajada sabr – toqatni talab qiladigan ishni o'rgatishda barcha insoniy bilimlardan bolalar uchun eng oson va jozibalilarini tanla. Bolaning taqlid qilishi sening yo'l ko'rsatishing bo'lsin. Xonangda pech bo'lsa, uning rasmini chiz. Agar bolang bir yil davomida to'rt burchakni chiza olmasa-da har holda u qunt bilan ishlashga odatlanadi.»

Shuningdek, o'quvchilar badiiy bezash ishlarini ixtiyoriy ravishda va g'oyat qiziqish bilan bajarar ekan, ularni o'z holiga tashlab qo'ymaslik o'zlar bajarayotgan ishlarni maqsadi va mohiyatini bilib borishga, ana shu ishlarning natijasini tasavvur etishga o'rgatish lozim. Ana shularga ko'ra pedagogika oliy o'quv yurti badiiy grafika fakultetida ta'lim olayotgan talabalar rassomlik va chizmachilikka doir bilimlarni o'zlashtirish bilan bir qatorda badiiy bezash ishlarini tashkil etish va bu ishlarga rahbarlik qilish yo'llarini ham puxta egallashlari lozim. Shundagina ular umumiyligi ta'lim va hunar maktabi islohotiga muvofiq xalq maorifini qayta qurish sharoitida yanada muhim ahamiyat kasb etayotgan o'quv yurtlardagi badiiy bezash ishlarini axborot, tarbiya, agitatsiyaning, yoshlarni Vatanimiz manfaati yo'lidagi faoliyatiga jalg qilishning samarali vositasi sifatida amalga oshirishda ko'zlangan maqsadga erishishlari mumkin.

F O Y D A L A N I L G A N A D A B I Y O T L A R.

1. I.A.Karimov. O'zbekiston buyuk kelajak sari. T. 1998 yil
2. I.A.Karimov. Barkamol avlod orzusi. T. 1999 yil.
3. Azimova. B. Natyurmort tuzish metodikasi. T. 1984 yil.
4. Apuxtin O. Tasviriy san'at asoslari. T. 1978 yil.
5. Amanullayev. A. Xomaki tasvirlar. Nam. 1992 yil.
6. Bulatov S. S. Ashirova M.O. Amaliy san'at qisqacha lug'ati. T., Qobuslar bosh taxriri, 1992 yil.
7. Beda. V. Rangtasvir. M. 1968 yil.
8. Borsh K. Qalamtasvir. M. 1974 yil.
9. Vinner A.V. Materiali i texniki jivopisi. M. 1962 yil.
10. Gusev V.N. Akvarelniye kraski. M. 1979 yil.
11. Nabiiev. M. Rangshunoslik va Rangtasvir asoslari. T. 1995 yil.
12. Normatov N. Kamalak yashaydigan uy. Xujjatli qissa T., «Yulduzcha», 1990 yil.
13. Prette M.K. Kapalda A. Tvorchestvo i vo'rajeniye 2. M., Xudojnik. 1985
14. Rostovsev N Akademik qalamtasvir M. 1978 yil
15. Umarov A, Axmedov M. Tasviriy san'at atamalarinig izohli lug'ati. T., «O'qituvchi» 1997 yil
- 16 Hasanov. R.Narsani o'ziga qarab rasm chizish. T. 1969 yil
17. Hasanov S. Navoiy poetikasida ranglarning qo'llanilishi.
San'at jurnali 1 G' 1990, 26-27 betlar.